

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Fakultet dekani
_____ S.Abdullayev
“ ” _____ 2018-y

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi IV
kurs 402-guruh talabasi Sodiqova Tursunoy Sunnat qizining “Sirdaryo
viloyati toponimlari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
_____ f.f.d. T. Enazarov,
O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrasi dotsenti

Taqrizchi:

_____ N. Husanov
TMI O‘zbek va
rus tillari kafedrasi mudiri, f.f.d.professor

“Himoyaga tavsiya etilsin”
O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrasi mudiri,
f.f.d. T. Enazarov _____
“ ” _____ 2018-y

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-BOB. O‘ZBEK NOMSHUNOSLIGI HAMDA SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARINING TUZILISHIGA KO‘RA XUSUSIYATLARI.....	8
1.1. O‘ZBEK NOMSHUNOSLIGI TO‘G‘RISIDA.....	8
1.2. VILOYAT TOPONIMLARNING TUZILISHI.....	14
1.2.1. Sodda toponimlar.....	15
1.2.2. Qo‘shma toponimlar.....	17
1.2.3. Birikmali toponimlar.....	19
2-BOB. VILOYAT TOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	21
2.1. Tuman nomlari.....	21
2.2. Qishloq nomlari.....	23
2.3. Mahalla nomlari.....	26
2.4. Ko‘cha nomlari.....	32
3-BOB. VILOYATDAGI BA'ZI BIR TOPONIMLARNING IZOHI.....	38
3.1. Sodda toponimlarning izohi.....	38
3.2. Qo‘shma toponimlarning izohi.....	40
3.3. Birikmali toponimlarning izohi.....	43
Xulosa.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	48
Ilovalar.....	51

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining asoslanishi va dolzarbliги.

Nomshunoslikda, ya’ni tilshunoslik fanining atoqli otlarni o‘rganuvchi Onomastika (Nomshunoslik) bo‘limida antroponim hamda toponimlar to‘g‘risida fikr yuritilgan¹. Ushbu ikki termin onomastik terminlar bo‘yicha tuzilgan lug‘atlarda ham berilib, izohlangan va misollar keltirib o‘tilgan². Shu o‘rinda nomshunoslik ikkiga bo‘linadi: Umumiy nomshunoslik va xususiy nomshunoslik, aniqrog‘i, O‘zbek nomshunosligi.

Hozirgi kunda o‘zbek nomshunosligi ancha yutuqlarga erishdi. Respublikamizning viloyatlari, alohida olingan hududlarning toponimlari lingvistik jihatdan tahlilga tortilgan edi. Albatta, tilshunoslik sohasidagina bu ro‘y bermagan, balki tarix, geografiya fanlari sohalarida ham toponimlarga tegishli ilmiy tadqiqotlar ma’lum darajada amalga oshirilgan, chunki toponimlar mana shu uchta fanning tutashgan nuqtasida shakllanganligi kabi o‘rganiladi ham. Natijada, hozirgacha mamlakatimizning Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Jizzax, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo, Namangan viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimlari tizimiga ma’lum darajada e’tibor berildi. Ular yuzasidan bir qancha nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, maqola, monografiya, toponimik lug‘at kabi ilmiy ishlanmalar nashr etildi va bunday tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtgacha nom va toponimlarning alohida turlarini tahliliga, xususan, badiiy asarlardagi nomlarning yasalishi, yuzaga kelishiga, ilmiy tahliliga jiddiy e’tibor qaratilmagan.

Shubhasiz, oldingi davrlarda yaratilgan tilshunoslikka, geografiyaga va tarixga oid manbalarda shahar nomlari haqida ba’zi bir qaydlar bor bo‘lgani kabi XX asrning ilmiy hamda ommaviy matbuotida ham ayrim ma’lumotlar uchraydi.

¹ Нуридинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент, 2005. 5-12-бетлар.

² Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Н., 2006. 103 б.; Бегматов Э., Улуқов Н.М. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. Наманган, 2008. 166 б.

Ular qisman lingvistik jihatdan, asosan, geografik hamda tarixiy nuqtai nazardan bildirilgan bo‘lib, tavsifiy va tasnifiy xarakterdaligi bilan bahslidir. Hozirgacha mamlakatimiz toponimiyasi tizimi ma’lum darajada o‘rganilganligi ayon.

Joylarga qo‘yilgan nomlar, ya’ni toponimlar bugungi kunda ham ma’naviy meros, ham madaniy boylik, ham tilimizning qadimiylarini o‘zida saqlab qolgan ko‘hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi: “*Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi*”¹.

Bugungi mustaqillik davrida yoshlarni ona-vatanga muhabbat, ilm-fanga qiziqish ruhida tarbiyalashda nomlarning, xususan, toponimlarning roli benihoya kattadir. Sababi, ijtimoiy-siyosiy sohadagi har bir yangilik va o‘zgarish kishilarning, yoshlarning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortib turadi. Bu esa o‘z-o‘zidan nomlarga va yana ham aniqrog‘i, toponimlar masalasiga e’tibor qaratish zarur ekanligini eslatib turadi.

Bu – yoshlarimizni vatanparvar hamda milliy qadriyat va urf-odatlarimizga sadoqat ruhida, shuningdek, ilm-fanga ishtiyooq va qiziqish tarbiyalashda toponimlarning ahamiyati katta ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev “*Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala*”, deb bekorga aytmagan².

Sirdaryo viloyati toponimlari hozirgacha maxsus ravishda ilmiy tadqiq etish nuqtai nazaridan maxsus ilmiy tadqiqot ishlari uchun o‘rganish obyekti

¹ Каримов И.А.Юксак маънавият – енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият,2008.-Б.30.

² Мирзиёев Ш.Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Т.,Ўзбекистон, 2016.14-бет.

bo‘lmaqan. Ushbu viloyat toponimlari majmuidan ba’zi birlari A.Muhammadjonov, S.Qorayev¹, T.Nafasov, N.Oxunov, N.Uluqov kabi olimlar tomonidan XX asrning 60-70-yillardan to bugungi kunlargaacha qisman tavsifiy va talqiniy jihatlardan lingvistik, tarixiy va geografik yo‘nalishlarda tahlil etilgan bo‘lib, maxsus o‘rganilmagan.

O‘zbek nomshunosligiga tarixiy, fonetik, leksik (ma’noviy), morfologik, imloviy o‘zgarishlar singari alohida hududdagi shahar, qishloq, mahallalarning nomlariga xos bo‘lgan bir qancha individual o‘zgarishlarni ilmiy asoslarda tahlil etish dolzarb masalalardan biridir. Sababi, “...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”². O‘zlari yashayotgan hududdagi nomlarni bilish ham o‘zlikni anglashga, ajdodu avlodlarimiz qo‘ygan nomlarni tushunib, anglab, tahlil qilishga turtki beradi. Zero, nom qo‘yish ham o‘z o‘rnida san’at hisoblanadi.

Sirdaryo viloyati toponimlari ham boshqa viloyati toponimlari kabi bugungi kunda ham ma’naviy meros, ham madaniy boylik, ham tilimizning qadimiylarini o‘zida saqlab qolgan ko‘hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi. Shu sababli viloyat hududidagi shahar, shaharcha, qishloq, ko‘cha, mahalla kabilarning nomlarini ilmiy va amaliy jihatlardan o‘rganish va tadqiq etilishi zarurligi sezilmoqda. Ushbu hol esa mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusining bugungi kun uchun ancha dolzarbligini ko‘rsatib turibdi.

Bu viloyat toponimlari hozirgacha ilmiy tadqiq etish nuqtai nazaridan maxsus ilmiy tadqiqot ishlari uchun o‘rganish obyekti bo‘lmaqan. O‘zbek nomshunosligiga oid oldingi tadqiqotlar bilan tilshunosligimiz boyigani kabi bu mavzu bilan ham nisbatan tor mavzularga e’tibor qaratilgan bo‘ladi. Ulardagi

¹ Караев С. К. Ойкономия Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. Т., 1998. 50 с.

² Каримов И.А.Юксак маънавият – енгилмас куч.Т.,Маънавият,2008. 83-бет.

tarixiy, fonetik, leksik (ma'noviy), morfologik, imloviy o'zgarishlar singari alohida hududdagi shahar, shaharcha, qishloq, mahallalarning nomlariga xos bo'lgan bir qancha individual o'zgarishlarni ilmiy asoslarda tahlil etish o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Ushbu viloyat toponimlari boshqa viloyatlarning toponimlari kabi bugungi kunda ham ma'naviy meros, ham madaniy boylik, ham tilimizning qadimiylarini o'zida saqlab qolgan ko'hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi. Shu sababli Sirdaryo viloyati hududidagi shahar, shaharcha, qishloq, mahalla nomlarining ilmiy va amaliy jihatlardan o'rganish va tadqiq etilishi zarurligi sezilmoqda. Ushbu hol esa mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusining bugungi kun uchun ancha dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning obekti Sirdaryo viloyati toponimlari hisoblanadi.

Tadqiqotning **predmeti** viloyat toponimlarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Sirdaryo viloyati toponimlarini ilmiy va amaliy o'rganib, ularga xos lisoniy xususiyatlarni ko'rsatib berish bo'lsa, uning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- 1) o'zbek nomshunosligi haqida qisqa ma'lumot berish;
- 2) Sirdaryo viloyati toponimlarining tuzilishiga ko'ra xususiyatlarini yoritish;
- 3) viloyat toponimlarining leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish;
- 4) viloyatdagi ba'zi bir toponimlarining izohini amalga oshirish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi – bu ishda “O'zbek nomshunosligi” haqida qisqa ma'lumot berilganligi; Sirdaryo viloyati toponimlarining tuzilishi leksik-semantik xususiyatlari misollar asosida ko'rsatilganligi; ba'zi bir toponimlar izohining amalga oshirliganligi; ilovada viloyat toponimlari ro'yxatining berilganligi.

Tadqiqot bo'yicha adabiyotlar tahlilida "Nomshunoslik" va "O'zbek nomshunosligi"ga hissa qo'shgan E. Begmatov, T. Nafasov, T. Enazarov, Sh. Abdurasulov, E. Qilichev, S. Karimov, N. Oxunov kabi olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilindi¹.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullarning qisqacha tavsifi²:

- *Tavsify metodda* nomshunoslikka oid birliklarga tavsif berib borish yo'lidan boriladi.
- *Areal (hududiy) metodda* ajratib olingan hududdagi onomastik birliklar birin-ketinlik asosida talqin etiladi.
- *Statistik metod* esa nomlarning ma'lum bir hududda mavjud miqdori, qo'llanish darajasi va qo'llanish yo'nalishini ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati viloyat toponimlarini o'zbek onomastikasiga oid nazariy masalalarga muqoyosa qilgan holda tadqiq va tahlil qilish bo'lsa, uning **amaliy ahamiyati** mazkur viloyatdagi toponimlarni morfologik, leksik-semantik tahlil qilib, ba'zi bir toponimlarning izohini amalga oshirishdir.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi quyidagi ko'rinishda: Kirish, uchta bob, xulosa, foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilova.

¹ И. А. Каримов. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида.-Тошкент, Ўзбекистон, 1997.137-бет.; Ш. Абдурасулов. Ном – номус // Ўзбекистон адабиёти ва санъати.2012 йил 20 январ.№3 (4142). 5-бет.; Э. Бегматов. Жой номлари - маънавият кўзгуси. Т.,Маънавият, 1998.64 б.Э.Бегматов. Истиқол ўлкасининг топонимик сиёсати // ЎТА. Т., Фан, 1997. 3-сон. Б. 3-9; ЎТА. Т., Фан, 1997. 4-сон. Б. 7-9. б.; Э. Бегматов, Н. Улуқов. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. Н.,2006. 103 б.; Т. Нафасов. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1988.-Б.286-288.; Т. Нафасов. Ўзбек номномаси. – Қарши: Насаф, 1993. 154 б.; Т. Эназаров. Ном кўйиш ҳам санъат // Нутқ маданияти масалалари. Илмий тўплам. -Тошкент, 1993.-Б.227-228.; С.Каримов. Олдимизда улкан вазифалар турибди ёхуд ўзбек топонимикасининг бугунги ахволи ҳақида баъзи бир мулоҳазалар // Маърифат газетаси. 2010 йилнинг 10-январ. 11-саҳифаси.; Н. Охунов. Жой номлари ва таълим // “Таълим бўғинларида она тили ўқитиши мазмунини янгилаш асослари” мавzuидаги ўзбек тили доимий анжумани иккинчи йигинининг тезислари.-Қарши, 1993.-Б.42-43.

² Tilshunoslikda ilmiy tadqiqot metodlari ko'p bo'lib, ulardan ayrimlarini tanlab oldik.Qarang: Степанов Ю. С. Методы и принципы современной лингвистики. М., Наука, 1975. 312 с.

1-BOB. O‘ZBEK NOMSHUNOSLIGI HAMDA SIRDARYO

VILOYATI TOPONIMLARINING TUZILISHI

Bu bobda “O‘zbek nomshunosligi to‘g‘risida” qisqa ma’lumot berildi. Shu bilan birga viloyatdagi toponimlarning sodda, qo‘shma va birikmali turlariga ham e’tibor berildi, ya’ni bob ikki qismga bo‘lib o‘rganilgan. Toponimlarning sodda, qo‘shma va birikmali turlarga bo‘linishi ularning tuzilishiga ko‘ra turlari sanaladi. Shuning uchun ularni “Sodda toponimlar”, “Qo‘shma toponimlar” va “Birikmali toponimlar”ga bo‘lib o‘rganish o‘rinli.

1.1. O‘ZBEK NOMSHUNOSLIGI TO‘G‘RISIDA

Tilshunoslikning bir bo‘limi onomastika deb ataladi. Bu bo‘lim atoqli otlarni o‘rganadi. Bu bo‘limni keyingi ishlarda “O‘zbek nomshunosligi” deb atashmoqda. Quyida shu bo‘lim to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berishni lozim ko‘rdik.

Har bir narsaning o‘z nomi bo‘lgani kabi shu nomi bilan aytlishi shart. Xuddi shu ma’noda nom(lar) odamlar uchun yo‘l ko‘rsatuvchidir. Nom bilan, ya’ni kishilarni bir-biridan farqlab chaqirish, ularga murojaat qilish uchun ularning ismi, sharifi, familiyasi, laqabi, taxallusi va nisbalarini, qabila-urug‘, xalq nomlarni, joylarni, gidronim (*ariq, daryo, dengiz, okean, ko‘l, suv ombori, kanal*)larini, osmon jismlarini, o‘simliklarni, hayvonot dunyosi va boshqa narsa-hodisalarni atab, ularni shunga o‘xhash bo‘lgan narsa-hodisalardan ajratib, topib olish uchun esa ularning qanday so‘zlar bilan qay tarzda aytlishi va atalganligini bilish mumkin. Shu bilan birga, ularni shu sohaga qiziqtirib, nomlarning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muammolarining talqini va tahlili ularni ommabop ko‘rinishlarda o‘rganishga, mavjud nomlarni to‘g‘ri atash va maxsus ilmiy tahlilga chaqirish, ajratib ko‘rsatish uchun berilgan nomlarga bugungi yoshlarning qalbida hurmat, ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otish va ulg‘aytirishga xizmat qiladi.

Qadimiy tarixga ega bo‘lgan ona tilimiz – o‘zbek tili Davlat tili huquqini olgach (1989 yil 21 oktyabr), shuningdek, “*Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida*” qonuni qabul qilingach¹, turli toponimik obyektlarga va umuman, nomlanishi kerak bo‘lgan obektlarga nom qo‘yish, nomlarini almashtirish tamoyillari, yangi nomlarni rasmiylashtirish qoidalari, ularni to‘plash, jamlab, kartotekasini tuzish va ilmiy tahlilga tortish kabi muammolarga e’tibor berish dolzarb masalalardan biridir.

Mayjud obyektlarni nomlash va nomlarni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy xarakterdagi ishlarni bugungi mustaqillik davri talablariga mos ravishda tadqiq va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Boshqa xalqlar kabi xalqimiz ham qadim-qadimdan madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy va ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida jonli hamda jonsiz narsalarni nomlashga va umuman, narsa, hodisalarni, shuningdek, kishilarni nom(ism) bilan atab chaqirishda qo‘llanadigan nomlarga jiddiy e’tibor berib kelgan. Sababi, kishilar o‘zaro muloqotga kirishish uchun odamlarni ham, narsa-hodisalarni ham va butun borliqni ma’lum bir me’yordagi nomlar bilan atab, bir-biridan farqlashga harakat qilishgan. Natijada, ularda xalqimizning milliylik, milliy an’ana hamda milliy qadriyatları o‘z izini betakror holda qoldira olgan. Mana shu nomlar milliy o‘zlikni anglashga, xalqimizning ruhiy ma’naviy sarchashmalari bo‘lgan milliy udum, urf-odat, an’ana va qadriyatlarimizga qayta-qayta e’tibor berishga hissa qo‘sadigan vositalardan biri sanaladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev “*Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga keltiramiz*”, deb bekorga aytmagan².

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Географик объектларнинг номлари тўғрисида. Тошкент шаҳри, 2011 йил 12 октябрь.

² Мирзиёев Ш.Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Т.,Ўзбекистон, 2016.14-бет.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”, deb to‘g‘ri ta’kidlagan¹. O‘z nomini e’zozlay oladigan inson o‘zgalarning nomlarini ham to‘g‘ri va aniq aytish, xatosiz yozish bilan ardoqlashga imkon topadi.

Xalqimiz nutqida qo‘llanayotgan nomlar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ham tarixiy, ham serma’noligi bilan ajralib turadi. Umuman barcha obyektlarning nomlari to‘liq to‘plash ishlari boshlanganligi kabi mustaqillik tufayli mamlakatimizdagi ba’zi bir joy nomlarining tarixiy nomlari tiklanayotganligi, anchagina joylarga berilgan nomlar ayni vaqtda eskirib qolganligi sababli ham tuzatilayotganligi diqqat-e’tibor hamda e’tirofga loyiq ishlar sanaladi. Bu esa “O‘zbek nomshunosligi” sohasida hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qancha dolzarb muammolari mavjudligini tasdiqlaydi.

Nomi yo‘q obyektlarni nomlash, turkiy tillardagi, xususan, o‘zbek tilidagi nomlanish qonunlarini o‘rganish asosida ularga alohida e’tibor berish va qo‘llanayotgan ba’zi bir nomlarni imkoniyat doirasida izohli tahlil vositasida talqin etish masalasiga diqqat-e’tibor qaratish lozim. Bunga islom dinigacha bo‘lgan davr, xususan, Urxun-Yenesey (Enasoy) tosh bitiklari; islom dini davri, aniqrog‘i, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari, shuningdek, shu davr hamda undan keyingi davrdan to XX asrning 80-yillarigacha, mustaqillika erishganimizdan to bugungi kungacha yaratilgan turli lug‘atlardagi, badiiy va tarixiy asarlardagi turli nomlar majmuining jamlanishi, ma’lum bir tizim sifatida o‘rganilib, ilmiy-nazariy, amaliy asoslarda talqin etilishi misol bo‘ladi.

Atoqli otlarning o‘rganilishi masalalarining dunyodagi turli soha olimlari tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy asoslarda tadqiq etilishi ancha vaqtdan buyon davom etib kelmoqda. Bu haqida turli tillarda bir qancha ilmiy ishlar e’lon

¹ И. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., Ўзбекистон, 1997. Б.137.

qilingan. Bunda til va tarixga oid manbalar asosiy tayanch manba hisoblanadi. Shu bilan birga olimlarimizning tadqiq etish faoliyatları ham mazkur sohaning rivojlanishiga turki bo‘lgan. Atoqli otlarning o‘rganilishi qadim zamonlarga, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asariga borib taqalsa hamki, uning ilmiy asoslarda o‘rganilishi esa, XX asrning 50-yillaridan taniqli olim, professor Hamidulla Hasanovning ilk tadqiqotlaridan boshlangan. Bu soha materiallari ham yoshlarni vatanparvarlik, mardlik, milliy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Ernest Begmatovning tadqiqotlari asosan o‘zbek antroponimlariga bag‘ishlangan holda, qisman antroponimika hamda toponimikaning nazariy va amaliy masalalariga ham munosabat bildirilgan¹. A.Muhammadjonov esa XX asrning 50-yillari oxiridan mamlakatimiz toponimlarining amaliy masalalariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, XX asrning 90 yillaridan esa toponimlarning etimologik tahliliga ham jiddiy e’tibor berib, bir qancha bahsli va qiziqarli maqolalarni e’lon qilib kelmoqda.

Mamlakatimizda toponimlarni ham nazariy, ham amaliy jihatlardan jiddiy o‘rganish XX asrning 60-yillaridan boshlangan. T. Nafasov XX asrning 60-yillaridan to bugungi vaqtgacha toponimlarning izohli tahlili bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan. Bu olim Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi bir qancha joy nomlarining izohlining tahliliga kirishib, “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek nomnomasi”, “O‘zbek qishloqnomasi” singari bir qancha salmoqli ishlarni amalga oshirgan.

Suyun Qorayev toponimlarga ham geografik, ham tilshunoslik nuqtai nazardan ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Bu olim XX asrning 60-yillarining ikkinchi yarmidan ayni shu kunlargacha bo‘lgan davrda nomzodlik dissertatsiyasini filologiya fanlari yo‘nalishida, doktorlik ishini esa geografiya fanlari sohasida amalga oshirgan.

¹ Э.Бегматов Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик катламлари. Т., Фан, 1985. 16-18-бетлар ва бошқалар.

Zaripboy Do'simovning ilmiy tadqiqotlari XX asrning 60-yillari oxiridan to bugungi kungacha toponimikaning nazariy va amaliy masalalarini Xorazm viloyati toponimiyasi misolida tahlilga tortgan. Mazkur olimning tadqiqotlarida toponimlarning izohli tahlili asosiy o'rinni egallaydi.

Farg'ona viloyati toponimlarini Nosirjon Oxunov XX asrning 70-yillaridan ayni shu kunlarga ilmiy asoslarda o'rganib kelmoqda. Uning ishlarida Farg'ona vodiysi toponimlari, xususan, oykonimlari ilmiy asoslarga tayanib, qiziqarli va ishonarli dalillar vositasida tasnif etilib, ularni qisman izohli tahlil qilib, ularga xos xarakterli o'rinalarini bayon etgan.

N.Uluqov XX asrning oxiridan to bugungi kungacha Farg'ona vodiysi gidronimlarini izohli va etimologik tahlilga tortib, ularning tarixi (dioxron) va bugungi kundagi (sinxron) holatlariga to'xtalib, mukammal tasnifini va tahlilini amalga oshirishga harakat qilgan.

Mirali Mirakmalov XX asrning 90-yillarining ikkinchi yarmidan hozirgi vaqtgacha toponimlarni geografiya nuqtai nazaridan tahlil etgan. Bu olim xalq geografik terminlarini o'rganib, geografik lingvistika to'g'risida nazariy va amaliy ishlarni olib bormoqda.

T.Nafasovning "Toponimika" nomli maxsus kurs uchun tuzgan dasturini hamda N.Oxunovning "O'zbek tili o'qitishda joy nomlarini o'rganish", "Joy nomlari va ta'lif", "Joy nomlari – tilimiz lug'at boyligi" nomli maqolalarida atroflicha to'xtalingan.¹ Shuningdek S.Qorayevning "Toponimika" nomli dasturi va o'quv qo'llanmasini ham ta'kidlab ko'rsatish maqsadga muvofiqdir².

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимикаси. Махсус курс программыси. Т.,1988. 22 б.; Охунов Н. Ўзбек тили ўқитишида жой номларини ўрганиш // Олий ва ўрта махсус таълим юртларида ўзбек тилининг ўқитишига бағишланган 3-Республика илмий-амалий конференциясининг тезислари. Урганч, 1992. 7-бет; Охунов Н. Жой номлари ва таълим // "Таълим бўғинларида она тили ўқитиши мазмунини янгилаш асослари" мавзуидаги ўзбек тили доимий анжумани иккинчи йигининг тезислари. Қарши, 1993.42-43-бетлар; Охунов Н. Жой номлари – тилимиз лугат бойлиги // "Таълим жараёнида сўз бойлигини оширишнинг асосий омиллари" мавзуидаги ўзбек тили доимий анжумани учинчи йигининг тезислари. Т.,Ўқитувчи, 1995.74-75-бетлар

² С.Қораев. "Топонимика" дастури. ТДПУ, 2003. Бакалавриат йўналиши 5140500 – география ва иқтисодиёт билим асослари; S.Qorayev.Toponimika.Олий ва ўрта махсус таълим мактаблари учун ўкув қўлланма. Т.,2006. 320 б.

Suyun Karimovning qayd etishicha, SamDUDA toponimika laboratoriysi faoliyat yuritilayotgan ekan¹. Nomlarni yig‘ish, to‘plash, jamlash ishiga yo‘naltirilgan bunday laboratoriyalarning boshqa o‘quv yurtlarida ham bo‘lishi, faoliyat ko‘rsatishi bizning nazarimizda, tabiiy holdir. Oliy o‘quv yurtlarida tashkil qilingan toponimika komissiyalari ham e’tirofga loyiq ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

H.Hasanov, E. Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do‘simov, B. Bafoyev, N. Husanov, T.Enazarov, N. Uluqov, M. N. Amazonova, H. Uzoqov, L. Karimova, J. Latipov, X. Xolmo‘minov, N. Oxunov, S.Naimov, Yo. Xo‘jamberdiyev, Sh. M. Qodirova, Sh. Yoqubov, P. G‘ulomov, M. Mirakmalov, A. Otajonova, A. Aslonov, M. Tillayeva, M. Almamatov singari tilshunoslik, geografiya, tarix, geologiya kabi fanlarining olimlari bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda.

Shu o‘rinda mamlakatimizdagи nomlarning xususiyatlariga ham qisqacha to‘xtalsak: Nomlar, aniqrog‘i, toponimik nomlar obyektlarining hajmiga ko‘ra tasnifi uchta ko‘rinishga egaligini e’tirof etish kerak: 1) mikronomlar; 2) o‘rtacha nomlar; 2) makronomlar.

Obyektlarining turiga ko‘ra nomlarning tasnifi: 1) antroponim – kishilarning ismi, familiyasi (otasining ismi), sharifi, taxallusi va laqablari hisoblanadi; 2) agroonim – shahardagi maydon, bozor va ekinzor yerlarning nomlari; 3) astionim – shahar nomlari; 5) gidronim – suv inshootlari (daryo, ariq, hovuz, suv ombori kabilar)ning nomi; 6) godonim – shahar ko‘chalari nomlari; 7) dromonim – yo‘l va yo‘lakchalarining nomlari; 8) zoonim – hayvon nomlari; 9) zoootponim – hayvon nomlari bilan yasalgan toponimlar; 10) nekronim – qabristonning nomlari; 11) oykonim – shahar, qishloq, guzar, mahalla, ovul kabi topoobyektlarning nomi; 12) fitonim – mavjud o‘simliklarning nomlari; 13) ergotoponim – fabrika, zavod, shaxta kabilarning nomlaridan yuzaga toponimlar (joy nomlari); 14) etnonim –

¹С.Каримов. Олдимиизда улкан вазифалар турибди ёхуд ўзбек топонимикасининг бугунги ахволи хақида баъзи бир мулоҳазалар // Маърифат газетаси. 2010 йилнинг 10-январь. 11-саҳифаси.

urug‘-qabila, elat va xalqlarning nomlari; 15) oronim – baland, pastliklar, tog‘, tepe, adir, qoya kabilarning nomlari va boshqalar.

Mamlakatimiz hududidagi toponimik nomlar obyektlarining hajmiga ko‘ra tasnifi uchta ko‘rinishga ega:

1) mikronomlar. Mamlakatimiz hududidagi mavjud qishloq, ko‘cha, mahalla nomlari kabi kichik topoobyektlar kirdi;

2) makronomlar. Bularga Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shahar va viloyat nomlari;

3) o‘rtacha nomlar. Ularga viloyatimizdagi tuman nomlari va Guliston kabi shaharlarning nomlari oiddir.

Nomlarni tarixiyligiga ko‘ra ikkita katta guruhgaga bo‘lish mumkin:

1) tarixiy nomlar – tarixan shakllangan va ayni vaqtgacha saqlanib qolgan nomlar (Sirdaryo, Sayxun, Samarqand, Jizzax, Baxmal, Toshkent);

2) zamонавиј nomlar – hozirgi kunda shakllangan hamda faol ishlatilayotgan nomlar (Baxt shahri, Sohilbo‘yi shahari, Shodlik va Ahillik qishloqlari).

Demak, O‘zbek nomshunosligi o‘ziga xos alohida sohalardan biri bo‘lib, mamlakatimiz hududidagi toponimik obyektlarni, aniqrog‘i, oykonim (shahar, qishloq, mahalla), oronim (tog‘, tepe, qoya), ko‘cha nomi, dromonimlar kabi bir necha guruhlarga bo‘linishi tabiiy.

1.2. VILOYAT TOPONIMLARNING TUZILISHI

Biz mamlakatimiz toponimlarining bir bo‘lagi bo‘lgan Sirdaryo viloyati toponimlarining tuzilishiga ko‘ra yoki morfologik xususiyatlariga ko‘ra, odatda, uchta kichik guruhlarga bo‘ldik, ya’ni tasnifladik:

1) sodda toponimlar; 2) qo‘shma toponimlar; 3) birikmali toponimlar. Viloyat toponimlarining bunday tasniflanishi ularning tuzilishiga ko‘ra

xususiyatlarini belgilab, ko'rsatib turadi. Shuning uchun quyida ularni misollar keltirilgan birma-bir yoritishga harakat qilamiz.

2.1. SODDA TOPONIMLAR

Toponimlar bir so'z yoki bir o'zak va qo'shimchadan shakllangan holatda bo'lsa, ular sodda toponimlar sanaladi. Mazkur viloyat toponimlari ichida salmoqli miqdorni sodda toponimlar tashkil etadi. Biz bu yerda sodda topomin deganda toponimning o'zini oldik, ularga qo'shiladigan toponimik aniqlagich bo'lgan shahar, qishloq, ko'cha kabilar so'zlashish jarayonida kam ishlatiladi. Quyida ularni qayd etamiz: *Arafa* (Sirdaryo t.), *Vatan* (Oqoltin t.), *Vodil* (Sardoba t.).

Sirdaryo viloyatidagi sodda topomin shaklidagi shahar, shaharcha, ko'cha, mahallalar nomlari: *Olmazor shaharcha* (Sayxunobod t.), *Soxil shaharcha* (Sayxunobod t.), *Sayxun shaharcha* (Sayxunobod t.), *Ziyokor shaharchasi* (Sirdaryo t.), *Xovos shaharchasi* (Xovos t.), *Baxt shahri* (Sirdaryo t.), *Quyosh shaharchasi* (Sirdaryo t.), *Bo'ston ko'chasi* (Guliston sh.), *G'alaba ko'chasi* (Guliston sh.), *Adolat ko'chasi* (Sayxunobod t., Sirdaryo t.), *Badavlat ko'chasi* (Sirdaryo t.), *Bazmgoh ko'chasi* (Sirdaryo t.), *Ahillik ko'chasi* (Sirdaryo t., Sardoba t.), *Birlik ko'chasi* (Sardoba t.), *Birdamlik ko'chasi* (Xovos t., Guliston sh.), *Birlashgan ko'chasi* (Sardoba t.), *Farhod qishlog'i* (Xovos t.), *Yuksalish qishlog'i* (Sardoba t.), *Madaniyat qishlog'i* (Boyovut t.), *Ibrat qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Mustaqillik qishlog'i* (Xovos t.), *Sohibkor qishlog'i* (Xovos t.), *Gulzor qishlog'i* (Sardoba t.), *Guliston qishlog'i* (Sardoba t.), *Sholikor qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Paxtazor qishlog'i* (Sirdaryo t., Xovos t.), *Do'stlik qishlog'i* (Guliston sh.), *Tinchlik qishlog'i* (Boyovut t.), *Humo qishlog'i* (Guliston sh.), *Gulbahor qishlog'i* (Xovos t.), *Haqiqat qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Ahillik qishlog'i* (Oqoltin t.), *Bo'ston qishlog'i* (Oqoltin t.), *Shodlik qishlog'i* (Oqoltin t.), *Bahoriston qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Malik qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Turon*

qishlog‘i (Sirdaryo t.), *Bahor mahallasi* (Sirdaryo t.), *Bekat mahallasi* (Boyovut t.), *Oydin mahallasi* (Mirzaobod t.), *Yulduz mahallasi* (Sayxunobod t.), *Uchqun mahallasi* (Sayxunobod t.), *Qayirma mahallasi* (Xovos t.), *Yoshlik mahallasi* (Sayxunobod t.), *Omilkor mahallasi* (Boyovut t.), *Baxmal mahallasi* (Guliston sh.), *Xazina mahallasi* (Sirdaryo t.) va boshqalar.

Sodda toponimlar qaysi til elementlaridan kelib chiqqanligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

- 1.O‘z qatlam so‘zlarida shakllangan sodda toponimlar.
2. O‘zlashgan qatlam so‘zlaridan yuzaga kelgan toponimlar.

O‘z qatlam so‘zlarida shakllangan sodda toponimlarga misollar: *Quyosh shaharchasi* (Sirdaryo t.), *Bo’ston ko‘chasi* (Guliston sh.), *Birlik ko‘chasi* (Sardoba t.), *Birdamlik ko‘chasi* (Xovos t., Guliston sh.), *Birlashgan ko‘chasi* (Sardoba t.), *Tinchlik qishlog‘i* (Boyovut t.), *Turon qishlog‘i* (Sirdaryo t.), *Yulduz mahallasi* (Sayxunobod t.), *Uchqun mahallasi* (Sayxunobod t.), *Qayirma mahallasi* (Xovos t.), *Yoshlik mahallasi* (Sayxunobod t.) va boshqalar.

O‘zlashgan qatlam so‘zlaridan yuzaga kelgan toponimlarga namunalar: Sirdaryo viloyatida sodda toponim shaklidagi shahar, shaharcha, ko‘cha, mahallalar nomlariga *Soxil shaharcha* (Sayxunobod t.), *Sayxun shaharcha* (Sayxunobod t.), *Ziyokor shaharchasi* (Sirdaryo t.), *Xovos shaharchasi* (Xovos t.), *Baxt shahri* (Sirdaryo t.), *G’alaba ko‘chasi* (Guliston sh.), *Adolat ko‘chasi* (Sayxunobod t., Sirdaryo t.), *Badavlat ko‘chasi* (Sirdaryo t.), *Bazmgoh ko‘chasi* (Sirdaryo t.), *Ahillik ko‘chasi* (Sirdaryo t., Sardoba t.), *Farhod qishlog‘i* (Xovos t.), *Madaniyat qishlog‘i* (Boyovut t.), *Ibrat qishlog‘i* (Mirzaobod t.), Mustaqillik qishlog‘i (Xovos t.), Sohibkor qishlog‘i (Xovos t.), *Gulzor qishlog‘i* (Sardoba t.), *Guliston qishlog‘i* (Sardoba t.), *Sholikor qishlog‘i* (Sirdaryo t.), *Do’stlik qishlog‘i* (Guliston sh.), *Gulbahor qishlog‘i* (Xovos t.), *Haqiqat qishlog‘i* (Sirdaryo t.), *Ahillik qishlog‘i* (Oqoltin t.), *Bahoriston qishlog‘i* (Mirzaobod t.), *Malik qishlog‘i* (Sirdaryo t.), *Bahor mahallasi* (Sirdaryo t.), *Omilkor mahallasi*

(Boyovut t.), *Baxmal mahallasi* (Guliston sh.), Xazina mahallasi (Sirdaryo t.) va boshqalar.

Viloyat toponimlari sirasida kishi ismi-sharifi bilan aytildigan birikmali toponimlar ham uchradi. Ular ilmiy adabiyotlarda antroponim deb yuritilib, quyidagilar misoldir:

Farhod qishlog'i (Xovos t.), *Ibrat qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Malik qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Uchqun mahallasi* (Sayxunobod t.) va boshqalar.

Xullas, mazkur viloyatdagi sodda toponimlar ham faol qo'llanadi. Ular o‘z va o‘zlashgan qatlam so‘zlaridan shakllangani singari antroponimlar bilan ham nomlangan. Kishi ismi bilan nomlangan toponimlarni antropotoponim termini bilan atalgan.

2.2. QO‘SHMA TOPONIMLAR

Qo‘shma toponimlar ham qo‘shma so‘zlar kabi bir so‘z ma’nosini beradigan toponimlar sanaladi. Ularning Viloyat toponimiysi tizimidagi holatini quyidagi tarzda ko‘rsatish mumkin. Ularga misollar quyida berildi:

Boyovut shaharcha (Boyovut t.), *Sardoba shaharchasi* (Oqoltin t.), *Gulbahor ko‘chasi* (Guliston sh.), *Atirgul ko‘chasi* (Guliston sh.), *Boychechak ko‘chasi* (Guliston sh.), *Beshbuloq ko‘chasi* (Boyovut t., Sayxunobod t.), *Amudaryo ko‘chasi* (Sayxunobod t.), *Ariqtepa ko‘chasi* (Boyovut t.), *Buloqboshi ko‘chasi* (Guliston sh., Sayxunobod t.), *Bobodehqon ko‘chasi* (Sirdaryo t.), *Bag‘rikeng ko‘chasi* (Boyovut t.), *Bobotog’ ko‘chasi* (Sayxunobod t.), *Yangiqishloq qishlog'i* (Sardoba t.), *Mingchinor qishlog'i* (Boyovut t.), *Laylakko'l qishlog'i* (Boyovut t.), *Beshbuloq qishlog'i* (Guliston sh.), *Qo‘rg‘ontepa qishlog'i* (Sardoba t.), *Ulug‘obod qishlog'i* (Guliston sh.), *Sohilobod qishlog'i* (Guliston sh.), *Yangiobod qishlog'i* (Sardoba t.), *Elobod qishlog'i* (Sayxunobod t.), *Nurobod qishlog'i* (Guliston sh.), *Nurobod qishlog'i*

(Mirzaobod t.), *Mehnatobod qishlog‘i* (Xovos t.), *Xovosobod qishlog‘i* (Xovos t.), *Zafarobod qishlog‘i* (Xovos t.), *Xalqobod qishlog‘i* (Sirdaryo t.), *Gulbuloq mahallasi* (Sayxunobod t.), *Beshbuloq mahallasi* (Sirdaryo t.), *Oqoltin mahallasi* (Guliston sh.), *Yangihayot mahallasi* (Mirzaobod t.), *Navro‘zobod mahallasi* (Yangiyer sh.), *Sharqobod mahallasi* (Xovos t.), *Dehqonobod mahallasi* (Mirzaobod t.), *Baytqo‘rg‘on mahallasi* (Boyovut t.), *Uchturg‘on mahallasi* (Boyovut t.), *Saritepa mahallasi* (Sayxunobod t.) va boshqalar.

Qo‘shma toponimlar qaysi tillarning so‘zlaridan shaklanganiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: Qo‘shma toponimlar qaysi til elementlaridan kelib chiqqanligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1.O‘z qatlam so‘zlarida shakllangan qo‘shma toponimlar.

2. O‘zlashgan qatlam so‘zlaridan yuzaga kelgan qo‘shma toponimlar.

O‘z qatlam so‘zlarida shakllangan qo‘shma toponimlar: *Boyovut shaharcha* (Boyovut t.), *Boychechak ko‘chasi* (Guliston sh.), *Beshbuloq ko‘chasi* (Boyovut t., Sayxunobod t.), *Ariqtepa ko‘chasi* (Boyovut t.), *Buloqboshi ko‘chasi* (Guliston sh., Sayxunobod t.), *Bag‘rikeng ko‘chasi* (Boyovut t.), *Bobotog‘ ko‘chasi* (Sayxunobod t.), *Yangiqishloq qishlog‘i* (Sardoba t.), *Beshbuloq qishlog‘i* (Guliston sh.), *Qo‘rg‘ontepa qishlog‘i* (Sardoba t.), *Yangiobod qishlog‘i* (Sardoba t.), *Elobod qishlog‘i* (Sayxunobod t.), *Beshbuloq mahallasi* (Sirdaryo t.), *Uchturg‘on mahallasi* (Boyovut t.), *Saritepa mahallasi* (Sayxunobod t.) va boshqalar.

O‘zlashgan qatlam so‘zlaridan yuzaga kelgan qo‘shma toponimlar:

Sardoba shaharchasi (Oqoltin t.), *Gulbahor ko‘chasi* (Guliston sh.), *Atirgul ko‘chasi* (Guliston sh.), *Amudaryo ko‘chasi* (Sayxunobod t.), *Bobodehqon ko‘chasi* (Sirdaryo t.), *Mingchinor qishlog‘i* (Boyovut t.), *Laylakko‘l qishlog‘i* (Boyovut t.), *Ulug‘obod qishlog‘i* (Guliston sh.), *Sohilobod qishlog‘i* (Guliston sh.), *Nurobod qishlog‘i* (Guliston sh., Mirzaobod t.), *Mehnatobod qishlog‘i* (Xovos t.), *Xovosobod qishlog‘i* (Xovos t.), *Soyibobod qishlog‘i* (Guliston sh.),

Zafarobod qishlog‘i (Xovos t.), *Xalqobod qishlog‘i* (Sirdaryo t.), *Gulbuloq mahallasi* (Sayxunobod t.), *Oqoltin mahallasi* (Guliston sh.), *Yangihayot mahallasi* (Mirzaobod t.), *Navro‘zobod mahallasi* (Yangiyer sh.), *Sharqobod mahallasi* (Xovos t.), *Dehqonobod mahallasi* (Mirzaobod t.), *Baytqo‘rg‘on mahallasi* (Boyovut t.) va boshqalar.

Demak, qo‘shma toponimlar viloyat toponimlari tizimida faol qo‘llanadi. Ularni o‘z va o‘zlashgan qatlam so‘laridan tashkil topganligini hisobga olish kerak.

2.3. BIRIKMALI TOPONIMLAR

Ikki so‘zning shakl va mazmuniga ko‘ra birikib, birikmani hosil qilishi kuzatiladi. Mana shu holat toponimlarda kuzatilsa, ular birikmali toponimlar deyiladi. Ularning qismlari qo‘shib yozilmaydi. Bunday toponimlarga quyidagilar misol bo‘ladi: *Buyuk avlod ko‘chasi* (Xovos t.), *Buyuk turon ko‘chasi* (Xovos t.), *Barkamol avlod ko‘chasi* (Mirzaobod t.), *Baxmal tog‘i ko‘chasi* (Sayxunobod t.), *Bozor yo‘li ko‘chasi* (Sayxunobod t.), *Abdulla Qahhor ko‘chasi* (Mirzaobod t.), *Ahmad Donish ko‘chasi* (Oqoltin t.), *Bibixonim ko‘chasi* (Oqoltin t.), *Abu Rayhon Beruniy ko‘chasi* (Xovos t.), *Buyuk Turon ko‘chasi* (Sirdaryo t.), *Anorli bog‘ ko‘chasi* (Boyovut t.), *Baxmalsoy ko‘chasi* (Guliston sh.), *Arnasoy ko‘chasi* (Mirzaobod t.), *Bag‘rikent* (Boyovut t.), *Belbog‘li ko‘chasi* (Boyovut t.), *Oltin O‘rda qishlog‘i* (Guliston sh.), *Abdurahmon Jomiy mahallasi* (Yangiyer sh.), *Ahmad Yassaviy mahallasi* (Oqoltin t., Guliston sh.), *Hamid Olimjon mahallasi* (Guliston sh., Sardoba t.), *Amir Temur mahallasi* (Oqoltin t.), *Alisher Navoiy mahallasi* (Boyovut t.), *Obod yurt mahallasi* (Yangiyer sh.), *Uch Qal‘a mahallasi* (Sayxunobod t.), *Mirzo Ulug‘bek mahallasi* (Mirzaobod t.), *Temur Malik mahallasi* (Yangiyer sh.), *Zahiriddin Muhammad Bobur mahallasi* (Yangiyer sh.), *Qo‘qoni-qarapchi mahallasi* (Xovos t.) va boshqalar.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, viloyat hududida qo‘llanayotgan birikmali topominlar sodda hamda qo‘shma toponimlarga nisbatan kamroq qo‘llanar ekan.

Birikmali topominlar qaysi til elementlaridan kelib chiqqanligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1.O‘z qatlam so‘zlarida shakllangan birikmali topominlar.

2. O‘zlashgan qatlam so‘zlaridan yuzaga kelgan birikmali topominlar.

O‘z qatlam so‘zlarida shakllangan birikmali toponimlarga misollar: *Buyuk turon ko‘chasi* (Xovos t.), *Bag‘rikent* (Boyovut t.), *Belbog‘li ko‘chasi* (Boyovut t.), *Arnasoy ko‘chasi* (Mirzaobod t.), *Qo‘qoni-qarapchi mahallasi* (Xovos t.) va boshqalar.

O‘zlashgan qatlam so‘zlaridan yuzaga kelgan birikmali toponimlarga namunalar: *Buyuk avlod ko‘chasi* (Xovos t.), *Bozor yo‘li ko‘chasi* (Sayxunobod t.), Anorli bog‘ ko‘chasi (Boyovut t.), *Baxmalsoy ko‘chasi* (Guliston sh.) kabilar.

Birikmali topominlar ichida kishi ismi-sharifi bilan aytildigan topominlar ham uchradi: *Abdulla Qahhor ko‘chasi* (Mirzaobod t.), *Ahmad Donish ko‘chasi* (Oqoltin t.), *Bibixonim ko‘chasi* (Oqoltin t.), *Abu Rayhon Beruniy ko‘chasi* (Xovos t.), *Abdurahmon Jomiy mahallasi* (Yangiyer sh.), *Ahmad Yassaviy mahallasi* (Oqoltin t., Guliston sh.), Hamid Olimjon mahallasi (Guliston sh., Sardoba t.), *Amir Temur mahallasi* (Oqoltin t.), *Alisher Navoiy mahallasi* (Boyovut t.), *Mirzo Ulug‘bek mahallasi* (Mirzaobod t.), Temur Malik mahallasi (Yangiyer sh.), *Zahiriddin Muhammad Bobur mahallasi* (Yangiyer sh.) singari.

Sirdaryo viloyati toponimlarining tuzilishiga ko‘ra xususiyatlari viloyat toponimiyasi tizimidagi joy nomlari misolida ko‘rilganda uchta guruhga bo‘lib o‘rganildi: 1) sodda topominlar; 2) qo‘shma topominlar; 3) birikmali topominlar.

Ularning tarkibidagi toponimlarning ko‘proq qismi o‘z qatlam so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lsa, ma’lum bir qismi esa o‘zlashgan qatlam so‘zlaridan shakllanganligi ham kuzatildi. Shu bilan birga kishi ismi-sharifi bilan aytildigan birikmali topominlar ham uchradi.

2-BOB. VILOYATDAGI TOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Onomastikada toponimlar bir necha nuqtai nazardan tahlilga tortiladi. Shunday tahlillardan biri toponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini ko'rsatishdir. So'zlarning ma'noviy guruhlanishi ularning leksik-semantik xususiyatlarini ko'rsatgani kabi toponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini birma-bir tahlilga tortishdir. Biz Sirdaryo viloyati toponimlarining leksik-semantik xususiyatlarini quyidagicha tarzda guruhlarga bo'lib o'rgandik:

1. Oykonimlar (qishloq, shahar, shaharcha, mahalla nomlari).
2. Ko'cha nomlari (dromonimlar).

Bulardan ko'rinish turibdiki, toponimlar leksik-semantik jihatdan ikki guruhga bo'linsa hamki, ular o'z ichida yana beshta leksik-semantik guruhga ajratib o'rganildi.

2.1. VILOYATDAGI OYKONIMLAR

Oykonimlar toponimikaga oid ilmiy adabiyotlarda aholi yashaydigan joylar, xususan, shahar va qishloqlar nomlari deyiladi. Viloyatimizdagi oykonimlar ham o'z ichida yana bir necha turga bo'linadi: 1) shahar nomlari; 2) shaharcha nomlari; 3) qishloq nomlari; 4) mahalla nomlari.

2.1.1. VILOYATDAGI SHAHAR VA SHAHARCHA NOMLARI

Bizning viloyatda shahar hamda shaharcha ko'rinishida rasmiylashtirilgan aholi punktlari ham uchradi. Toponimlar tarkibida shahar va shaharcha so'zlari toponimik indikator yoki toponimik aniqlagich vazifasida keladi va asosiy

toponimdan ajratib yoziladi. Quyida ularning misollari bilan tanishib, tahlil qilib boramiz:

Quyida oykonimlarni shahar va qishloq nomlari sifatida alohida-alohida tarzida bayon etildi:

1. Ramziy tushunchalar bilan nomlangan shaharcha nomlari: *Boyovut shaharcha* (Boyovut t.). Aslida boylik ramziylikni bildiradi, chunki birov ma'naviy jihatdan boy bo'lsa, boshqa birov esa iqtisodiy jihatdan boy bo'ladi. Ushbu toponim ikki so'zning “*boy + ovul*” shaklida birikishidan yuzaga kelgan. Ovul so'zi boy so'ziga birikkandan keyin uning ikkinchi bo'g'ini bo'lgan *-ul* talaffuzda fonetik o'zgarishlarga uchrab, *-ut* ko'rinishiga kelib qolgan.

2. O'simlik nomlaridan shakllangan shaharcha nomlari: *Olmazor shaharcha* (Sayxunobod t.).

3. Dehqonchilik terminlari bilan nomlangan shaharcha nomlari: *Paxtaobod shaharchasi* (Sardoba t.). Paxta yetishtirish ham, aslida dehqonchilikning bir turi hisoblanadiki, dehqonchilik sohasiga oid terminlar toponimlar tizimida ishlatilmoqda. Paxtaobod (Sirdaryo viloyati), G'allaorol (Jizzax viloyati) toponimlari yuqoridagi fikrga misoldir.

4. Gidronim nomlari bilan atalgan shahar(cha) nomlari: *Sirdaryo shahri* (Sirdaryo t.), *Soxil shaharcha* (Sayxunobod t.) – gidronimning qismi sohil deyiladi, *Sayxun shaharcha* (Sayxunobod t.) – Sirdaryoning bir nomi *Sayxundir*.

6. Kasb nom-hunar nomlaridan shakllangan shaharcha nomlari: *Ziyokor shaharchasi* (Sirdaryo t.) – vrach, o'qituvchi kabi kasb vakillari ko'p yashashgani uchun shunday nomlangan. Bunday kasb-hunar vakillarini xalq vakillari ziyokorlar deyishadi.

7. Shahar nomi bilan atalgan shaharcha nomi: *Farg'ona shaharchasi* (Oqoltin t.). Mamlakatimizda Farg'ona shahri va Farg'ona viloyati borligini bilamiz. Ushbu toponim mazmunida Farg'onadan ko'chib kelishgan aholi yashaydigan joy degan ma'no bor.

8.Ijobiy ma'noli so'zlar bilan shakllangan shahar nomlari. Qadimdan xalqimiz nomlarga ijobiy ma'noli so'zlardan nom tanlashgan. Shuning uchun ham ular viloyatimizdagi shahar va shaharcha nomlari tarkibida ham faol qo'llanilmoqda: *Baxt shahri* (Sirdaryo t.), *Quyosh shaharchasi* (Sirdaryo t.) va boshqalar.

2.1.2. VILOYATDAGI QISHLOQLAR NOMI

Umuman olganda aholi punktlari nomlari oykonimlar nomi bilan atalgani kabi ularning alohida turlari qishloq va shahar nomlariga bo'linadi. Ushbu Viloyatda aholi punktlarining bir turi qishloqlar hisoblanadi. Ular ko'pincha *qishloq* toponimik aniqlagichisiz ishlataladi, rasmiy hujatlarda esa uning nomiga *qishloq* toponimik aniqlagichi qo'shib yoziladi (*qish+la+q = qishloq*).

Qishloq nomlari mamlakatimizda o'n yeti mingdan ortiqdir¹: Guliston shahri atrofida 8ta, Sirdaryo tumanida 9ta, Sardoba tumanida 7ta, Oqoltin tumanida 4ta, Boyovut tumanida 14ta, Mirzaobod tumanida 9ta, Sayxunobod tumanida 5ta, Xovos tumanida 11ta. Ularning miqdori boshqa viloyatlarga nisbatan kamligiga sabab viloyatning asosiy qismi oldin cho'lning atrofi bo'lib, yangidan qurilgandir. Quyida qishloq nomlaridan namunalar keltirildi:

1. Kishi ismi-sharifi bilan shakllangan qishloq nomlari: *Farhod qishlog'i* (Xovos t.), *Nurota qishlog'i* (Sayxunobod t.).

2. Ijobiy ma'nodagi ramziy tushunchalar bilan nomlangan qishloq nomlari: *Yuksalish qishlog'i* (Sardoba t.), *Yangiqishloq qishlog'i* (Sardoba t.), *Madaniyat qishlog'i* (Boyovut t.), *Ibrat qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Mustaqillik qishlog'i* (Xovos t.), *Sohibkor qishlog'i* (Xovos t.) va boshqalar.

¹ Qorayev S. Toponimika. Toshkent, 2006. 14-bet.

3. O'simlik nomlaridan shakllangan qishloq nomlari: *Gulzor qishlog'i* (Sardoba t.), *Guliston qishlog'i* (Sardoba t.), *Gulbahor qishlog'i* (Xovos t.), *Mingchinor qishlog'i* (Boyovut t.), *Olmazor qishlog'i* (Boyovut t.) singari.

4. Parranda va hayvon nomlaridan, zoonimlardan¹ hosil bo'lgan qishloq nomi: *Laylakko'l qishlog'i* (Boyovut t.). .

5. Dehqonchilik nomlari bilan nomlangan qishloq nomlari: *Sholikor qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Paxtazor qishlog'i* (Sirdaryo t., Xovos t.).

6. Gidronim nomlari bilan atalgan qishloq nomlari: *Beshbuloq qishlog'i* (Guliston sh.), *Laylakko'l qishlog'i* (Boyovut t.).

7. Kasb nomlaridan shakllangan qishloq nomlari: *Binokor qishlog'i* (Xovos t.), *G'allakor qishlog'i* (Boyovut t.).

8. Cho'l so'zi bilan atalgan qishloq nomlari: *Cho'lto'qay qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Cho'lquvor qishlog'i* (Sardoba t.) kabilar.

9. Ham tuman, ham gidronim nomi bilan shakllangan qishloq nomlari: *Sirdaryo qishlog'i* (Sirdaryo t.) tuman va daryo nomi bo'lgan holda qishloqqa ham nom bo'lgan.

10. Do'stlik so'zi bilan shakllangan qishloq nomlari: *Do'stlik qishlog'i* (Guliston sh.).

11. Ijobiy ma'noli so'zlar bilan shakllangan qishloq nomlari: *Tinchlik qishlog'i* (Boyovut t.), *Humo qishlog'i* (Guliston sh.), *Zarbdor qishlog'i* (Guliston sh.), *Haqiqat qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Ahillik qishlog'i* (Oqoltin t.), *Bo'ston qishlog'i* (Oqoltin t.), *Shodlik qishlog'i* (Oqoltin t.), *Istiqbol qishlog'i* (Sayxunobod t., Boyovut t.), *Nurafshon qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Tabarruk qishlog'i* (Boyovut t.), *Farovon qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Bahoriston qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Birlashgan qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Yuksalish qishlog'i* (Sayxunobod t.) .

¹ Эназаров Т. Ж., Хусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. 170-171-betlar.

12.Istorizmlar bilan shakllangan qishloq nomlari: *Oltin O'rda qishlog'i* (Guliston sh.), *Malik qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Turon qishlog'i* (Sirdaryo t.).

13.Tepa so'zi bilan shakllangan qishloq nomlari: *Qo'rg'ontepa qishlog'i* (Sardoba t.)

14.Obod so'zi bilan nomlangan qishloq nomlari: *Ulug'obod qishlog'i* (Guliston sh.), *Sohilobod qishlog'i* (Guliston sh.), *Yangiobod qishlog'i* (Sardoba t.), *Obod mahallasi* (Oqoltin t.), *Dehqonobod qishlog'i* (Boyovut t.), *Mehnatobod qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Elobod qishlog'i* (Sayxunobod t.), *Nurobod qishlog'i* (Guliston sh.), *Nurobod qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Mehnatobod qishlog'i* (Xovos t.), *Xovosobod qishlog'i* (Xovos t.), *Soyibobod qishlog'i* (Guliston sh.), *Zafarobod qishlog'i* (Xovos t.), *Xalqobod qishlog'i* (Sirdaryo t.).

Qishloq nomlari bo'lgan toponimlar qaysi til elementlaridan kelib chiqqanligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1.O'z qatlam so'zlarida shakllangan qishloq nomlari.

2. O'zlashgan qatlam so'zlaridan yuzaga kelgan qishloq nomlari.

O'z qatlam so'zlarida shakllangan qishloq nomlari: *Yuksalish qishlog'i* (Sardoba t.), *Yangiqishloq qishlog'i* (Sardoba t.), *Beshbuloq qishlog'i* (Guliston sh.), *Binokor qishlog'i* (Xovos t.), *G'allakor qishlog'i* (Boyovut t.),

Tinchlik qishlog'i (Boyovut t.), *Shodlik qishlog'i* (Oqoltin t.), *Birlashgan qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Yuksalish qishlog'i* (Sayxunobod t.), *Turon qishlog'i* (Sirdaryo t.), *Qo'rg'ontepa qishlog'i* (Sardoba t.), *Elobod qishlog'i* (Sayxunobod t.), *Yangiobod qishlog'i* (Sardoba t.)

O'zlashgan qatlam so'zlaridan yuzaga kelgan qishloq nomlariga misollar: *Farhod qishlog'i* (Xovos t.), *Madaniyat qishlog'i* (Boyovut t.), *Ibrat qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Mustaqillik qishlog'i* (Xovos t.), *Sohibkor qishlog'i* (Xovos t.), *Guliston qishlog'i* (Sardoba t.), *Gulbahor qishlog'i* (Xovos t.), *Mingchinor qishlog'i* (Boyovut t.), *Olmazor qishlog'i* (Boyovut t.), *Paxtazor qishlog'i* (Sirdaryo t., Xovos t.), *Cho'lto'qay qishlogi* (Sirdaryo t.), *Cho'lquvor qishlog'i*

(Sardoba t.), *Do'stlik qishlog'i* (Guliston sh.), *Humo qishlog'i* (Guliston sh.), *Zarbdor qishlog'i* (Guliston sh.), *Haqiqat qishlog'i* (Sirdaryo t.), Ahillik qishlog'i (Oqoltin t.), Bo'ston qishlog'i (Oqoltin t.), *Shodlik qishlog'i* (Oqoltin t.), *Istiqbol qishlog'i* (Sayxunobod t., Boyovut t.), *Nurafshon qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Tabarruk qishlog'i* (Boyovut t.), *Farovon qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Bahoriston qishlog'i* (Mirzaobod t.), *Dehqonobod qishlog'i* (Boyovut t.), *Mehnatobod qishlog'i* (Mirzaobod t., Xovos t.), *Xovosobod qishlog'i* (Xovos t.), *Zafarobod qishlog'i* (Xovos t.), *Xalqobod qishlog'i* (Sirdaryo t.).

Bulardan ko'riniib turibdiki, boshqa so'zlar bilan shakllangan toponimlar bilan birga kishi ismi (antroponim) bilan shakllangan oykonim (toponim)lar mavjud. Ular qishloq nomlaridir. Bunday nomlar ichida o'z va o'zlashgan so'zlar bilan shakllangan toponimlar ham uchraydi.

2.1.3. VILOYATDAGI MAHALLA NOMLARI

Mahalla nomlari ham toponimlar jumlasiga kiradi, aniqrog'i, oykonim, ya'ni aholi punktlari obyektlaridan birining nomi. Mahalla bugungi kunda mamlakatimizda alohida olingan ijtimoiy institut – jamoat tashkiloti sifatida faoliyat olib borilishini hammamiz bilamiz. Mahallalarning tashkil topgani juda qadim tarixga borib taqaladi, bu haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar bor. Ayni vaqtida mamlakatimizda ularning o'rni va roliga hukumatimiz darajasida e'tibor berilmoqda.

Chunki Toshkent shahrida besh yuzdan ortiq mahalla bo'lgani kabi viloyatlarda, xususan, Sirdaryo viloyatida ham bir qancha mahallalar borki, bu mamlakatimizdagi mahalla institutining ahamiyatini ko'rsatib turibdi. Shu o'rinda mahalla so'ziga e'tiborni qaratsak.

Mahalla (arabcha *hal* – “joylashmoq, o'rin olmoq”, *ma* – “o'rin”, “joy” ma'nosidagi old qo'shimchasi) – shaharning yoki katta qishloqning bir qismi, ba'zi

bir tillarda – shahar chekkasi, shahar atrofi; ko‘plik shakli mahallot tarixiy manbalarda, masalan «Boburnoma»da «shahar atrofi» ma’nosida keladi. E.M.Murzaev bu so‘z Tyanshan tog‘lari va Hindistondan Pireneya yarim oroligacha uchraydi deydi va Hindiston bilan Pokistonda «saroy» ham shu termindan deb biladi (Tojmahal saroyi)¹. Aslida arabcha «vaqt», «fursat» ma’nosidagi *mahal* (kechga mahal) so‘zining ham «o‘rin», «joy» ma’nosi bor. Demak, mahalla o‘rin-joy ma’nosidagi arabcha hal so‘zi asosida shakllangan, undagi ma- old qo‘shimchasi arab tiliga xos qo‘shimchadir.

Viloyatdagi mahalla nomlari: Guliston shahrida 24ta, Sirdaryo tumanida 27ta, Sardoba tumanida 17ta, Oqoltin tumanida 11ta, Boyovut tumanida 34ta, Mirzaobod tumanida 13ta, Sayxunobod tumanida 30 ta, Xovos tumanida 13ta, Yangiyer tumanida 8ta. Qishloq nomlari leksik- semantik jihatdan quyidagicha guruhlandi:

1. Kishi ismi-sharifi bilan shakllangan mahalla nomlari: *Abdurahmon Jomiy mahallasi* (Yangiyer sh.), *Ahmad Yassaviy mahallasi* (Oqoltin t., Guliston sh.), *Hamid Olimjon mahallasi* (Guliston sh., Sardoba t.), *Amir Temur mahallasi* (Oqoltin t.), *Farhod mahallasi* (Xovos t., Boyovut t., Guliston sh.), *Alisher Navoiy mahallasi* (Boyovut t.), *Beruniy mahallasi* (Mirzaobod t., Boyovut t.), *Mirzo Ulug‘bek mahallasi* (Mirzaobod t.), *Temur Malik mahallasi* (Yangiyer sh.), *Zahiriddin Muhammad Bobur mahallasi* (Yangiyer sh.) kabilar.

2. Ramziy tushunchalar bilan nomlangan mahalla nomlari: *Navro‘z mahallasi* (Sardoba t., Sirdaryo t.), *Bahor mahallasi* (Sirdaryo t.), *Bog‘ora mahallasi* (Sirdaryo t.), *Bog‘ishamol mahallasi* (Sardoba t.), *Zarbdor mahallasi* (Guliston sh.), *Bog‘iston mahallasi* (Oqoltin t., Mirzaobod t.), *Ahillik mahallasi* (Guliston sh.), *Ibrat mahallasi* (Guliston sh.), *Istiqlol mahallasi* (Guliston sh.), *Yangibo‘ston mahallasi* (Boyovut t.), *Yangi hayot mahallasi* (Boyovut t.), *Sohil mahallasi* (Boyovut t.), *Oydin mahallasi* (Mirzaobod t.), *Haqiqat mahallasi*

¹ Қораев С. Ер тилининг қалити (Ўзбекистон географик номларини ҳосил қиласиган асосий терминлар ва бошқа сўзлар). Қисқача лугат. Тошкент, 2009. 60-бет.

(Mirzaobod t.), , *Mustaqillik mahallasi* (Sayxunobod t.), *Yulduz mahallasi* (Sayxunobod t.), *Uchqun mahallasi* (Sayxunobod t.), *Ziyokor mahallasi* (Sayxunobod t.), *Paymard mahallasi* (Sayxunobod t.), *Chamanzor mahallasi* (Xovos t.), *Qayirma mahallasi* (Xovos t.), *Yoshlik mahallasi* (Sayxunobod t.), *Navqiron mahallasi* (Sayxunobod t.), *Olg‘abos mahallasi* (Sayxunobod t.).

3. Urug‘, qabila nomlari¹ bilan shakllangan mahalla nomlari: *Qo‘qoni-qarapchi mahallasi* (Xovos t.).

4. O‘simlik nomlaridan² shakllangan mahalla nomlari: *Mevazor mahallasi* (Guliston sh.), *Gulzor mahallasi* (Oqoltin t.), *Anorzor mahallasi* (Boyovut t.), *Gulbog‘ mahallasi* (Boyovut t.), *Jyda guli mahallasi* (Mirzaobod t.), *O‘rikzor mahallasi* (Sayxunobod t.), *Gulbahor mahallasi* (Xovos t.).

5. Kasbga oid so‘zlardan hosil bo‘lgan mahalla nomlari: *Julangar mahallasi* (Boyovut t.), *Mirishkor mahallasi* (Boyovut t.), *Ijodkor mahallasi* (Boyovut t.), *Binokor mahallasi* (Yangiyer sh.), *Sohibkor mahallasi* (Xovos t.).

6. Dehqonchilik nomlari bilan nomlangan mahalla nomlari: *Sholikor mahallasi* (Sayxunobod t., Sirdaryo t.), *Paxtakor mahallasi* (Sayxunobod t., Boyovut t., Sardoba t.), *Omilkor mahallasi* (Boyovut t.).

7. Gidronim nomlari bilan atalgan mahalla nomlari: *Gulbuloq mahallasi* (Sayxunobod t.), *Beshbuloq mahallasi* (Sirdaryo t.).

8. Yurt va ovul so‘zlari bilan shakllangan mahalla nomlari: *Yurtdosh mahallasi* (Sardoba t.), *Ota yurt mahallasi* (Sardoba t.), *Bobo yurt mahallasi* (Boyovut t.), *Qumovul mahallasi* (Sayxunobod t.).

9. Tadbirkorlik bilan atalgan mahalla nomlari: *Tadbirkor mahallasi* (Sirdaryo t.), *Tajribakor mahallasi* (Guliston sh.).

¹ Эназаров Т. Ж., Хусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. 170-171-betlar.

² Эназаров Т. Ж., Хусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. 165-166-betlar.

10. Ham tuman, ham shahar nomi bilan shakllangan mahalla nomlari: *Baxmal mahallasi* (Sayxunobod t., Sardoba t., Sirdaryo t.), *Zarafshon mahallasi* (Oqoltin t.), *Turon mahallasi* (Sayxunobod t.), *Baxmal mahallasi* (Guliston sh.), *Toshkent mahallasi* (Mirzaobod t.), *Baxmalsoy mahallasi* (Sayxunobod t.).

11. Do'stlik, qum so'zlar bilan shakllangan mahalla nomlari: *Do'stlik mahallasi* (Sardoba t., Sirdaryo t.), *Qoraqum mahallasi* (Xovos t.).

12. Ijobiy ma'noli so'zlar bilan shakllangan mahalla nomlari: *Hikmatli mahallasi* (Sirdaryo t.), *Xazina mahallasi* (Sirdaryo t.), *Adolat mahallasi* (Sirdaryo t.), *Istiqlol mahallasi* (Sirdaryo t.), *Tinchlik mahallasi* (Sirdaryo t.), *Tiklanish mahallasi* (Sirdaryo t.), *Orzu mahallasi* (Sirdaryo t.), *Taraqqiyot mahallasi* (Sirdaryo t.), *Iftixor mahallasi* (Boyovut t.), *Nurli mahallasi* (Boyovut t.), *Ozodlik mahallasi* (Boyovut t.), *Bunyodkor mahallasi* (Sirdaryo t., Boyovut t.), *Matonat mahallasi* (Sirdaryo t.), *Ko'rkar diyor mahallasi* (Oqoltin t.), *Serquyosh mahallasi* (Sardoba t.), *Ishonch mahallasi* (Guliston sh.), *Bahor mahallasi* (Guliston sh.), *Birlashgan mahallasi* (Sardoba t., Guliston sh.), *Taraqqiyot mahallasi* (Guliston sh.), *Shodlik mahallasi* (Guliston sh.), *Oltinvodiy mahallasi* (Guliston sh.), *Namuna mahallasi* (Guliston sh.), *Oqoltin mahallasi* (Guliston sh.), *Sayqal mahallasi* (Guliston sh.), *Istiqlol mahallasi* (Xovos t.), *Yulduz mahallasi* (Guliston sh.), *Namuna mahallasi* (Guliston sh.), *Shirin mahallasi* (Boyovut t.), *Shodlik mahallasi* (Yangiyer sh.), *Tinchlik mahallasi* (Xovos t.).

13. Yangi (nav) so'zi bilan shakllangan mahalla nomlari: *Yangihayot mahallasi* (Mirzaobod t., Guliston sh.), *Yangiovil mahallasi* (Mirzaobod t.), *Navro'z mahallasi* (Boyovut t.), *Navro'z mahallasi* (Mirzaobod t.), *Yangibog' mahallasi* (Sayxunobod t.), *Yangi turmush mahallasi* (Oqoltin t.).

14. Istorizmlar bilan shakllangan mahalla nomlari: *Chubor mahallasi* (Sardoba t.), *Rovot mahallasi* (Xovos t., Sardoba t.), *Zomin mahallasi* (Oqoltin t., Sardoba t.), *Zominlik mahallasi* (Sardoba t.), *Quyi tosh mahallasi* (Sardoba

t.), *Turkiston mahallasi* (Sirdaryo t.), *Sarmich mahallasi* (Boyovut t.), *Sintob mahallasi* (Sayxunobod t.).

15. Shoirlar nomi bilan, ya’ni antroponimlardan¹ shakllangan mahalla nomlari: *Navoiy mahallasi* (Sirdaryo t.), *Furqat mahallasi* (Sirdaryo t.), *Alisher Navoiy mahallasi* (Oqoltin t.), *Muqimiyy mahallasi* (Boyovut t., Guliston sh.).

16. Obod, saroy so‘zlari bilan nomlangan mahalla nomlari: *Dehqonobod mahallasi* (Sirdaryo t., Sayxunobod t., Mirzaobod t.), *Islomobod mahallasi* (Sirdaryo t.), *Obod yurt mahallasi* (Yangiyer sh.), *Navro‘zobod mahallasi* (Yangiyer sh.), *Sharqobod mahallasi* (Xovos t.), *Paxtaobod mahallasi* (Sayxunobod t.), *Nurobod mahallasi* (Sayxunobod t.), *Savotobod mahallasi* (Boyovut t.), *Yangiobod mahallasi* (Boyovut t.), *Elobod mahallasi* (Boyovut t., Sirdaryo t.), *Fayzli obod mahallasi* (Sardoba t.), *Obod mahallasi* (Oqoltin t.), *Karvonsaroy mahallasi* (Xovos t.).

17. Madaniy va ma'rifiy ma'noli so‘zlar bilan shakllangan mahalla nomlari: *Madaniyat mahallasi* (Guliston sh., Boyovut t.), *Ma'rifat mahallasi* (Xovos t., Yangiyer sh.), *Markaz mahallasi* (Boyovut t.), *Ma'naviyat mahallasi* (Boyovut t.), *Yetakchi mahallasi* (Boyovut t.), *Farovon mahallasi* (Sayxunobod t.).

18. *Qo‘rg‘on, qal'a, tepa* so‘zlari bilan shakllangan mahalla nomlari: *Baytqo‘rg‘on mahallasi* (Boyovut t.), *Uchturg‘on mahallasi* (Boyovut t.), *Uch Qal'a mahallasi* (Sayxunobod t.), *Saritepa mahallasi* (Sayxunobod t.) va boshqalar.

Mahalla nomlari ham qaysi til so‘zlari bilan shakllanganiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. O‘z qatlam so‘zlaridan shakllangan mahalla nomlari.
2. O‘zlashgan so‘zlardan yuzaga kelgan mahalla nomlari.

¹ Эназаров Т. Ж., Хусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. 165-143-bet.

O‘z qatlam so‘zlaridan shakllangan mahalla nomlariga misollar: *Oydin mahallasi* (Mirzaobod t.), *Yulduz mahallasi* (Sayxunobod t.), *Uchqun mahallasi* (Sayxunobod t.), *Qo‘qoni-qarapchi mahallasi* (Xovos t.), *Yurtdosh mahallasi* (Sardoba t.), *Ota yurt mahallasi* (Sardoba t.), *Bobo yurt mahallasi* (Boyovut t.), *Qumovul mahallasi* (Sayxunobod t.), *Turon mahallasi* (Sayxunobod t.), *Tinchlik mahallasi* (Sirdaryo t., Xovos t.), *Tiklanish mahallasi* (Sirdaryo t.), *Birlashgan mahallasi* (Sardoba t.), *Qayirma mahallasi* (Xovos t.), *Yangiovil mahallasi* (Mirzaobod t.), *Uchturg‘on mahallasi* (Boyovut t.) va boshqalar.

O‘zlashgan so‘zlardan yuzaga kelgan mahalla nomlariga namunalar: *Navro‘z mahallasi* (Sardoba t., Sirdaryo t.), *Bahor mahallasi* (Sirdaryo t.), *Bog‘ora mahallasi* (Sirdaryo t.), *Bog‘ishamol mahallasi* (Sardoba t.), *Zarbdor mahallasi* (Guliston sh.), *Bog‘iston mahallasi* (Oqoltin t., Mirzaobod t.), *Ahillik mahallasi* (Guliston sh.), *Ibrat mahallasi* (Guliston sh.), *Istiqlol mahallasi* (Guliston sh.), *Yangibo‘ston mahallasi* (Boyovut t.), *Yangi hayot mahallasi* (Boyovut t.), *Sohil mahallasi* (Boyovut t.), *Haqiqat mahallasi* (Mirzaobod t.), *Mustaqillik mahallasi* (Sayxunobod t.), *Ziyokor mahallasi* (Sayxunobod t.), *Paymard mahallasi* (Sayxunobod t.), *Chamanzor mahallasi* (Xovos t.), *Yoshlik mahallasi* (Sayxunobod t.), *Navqiron mahallasi* (Sayxunobod t.), *Sohibkor mahallasi* (Xovos t.), *Tajribakor mahallasi* (Guliston sh.), *Baxmal mahallasi* (Sayxunobod t., Sardoba t., Sirdaryo t.), *Zarafshon mahallasi* (Oqoltin t.), *Hikmatli mahallasi* (Sirdaryo t.), *Xazina mahallasi* (Sirdaryo t.), *Adolat mahallasi* (Sirdaryo t.), *Istiqbol mahallasi* (Sirdaryo t.), *Taraqqiyot mahallasi* (Guliston sh.), *Sayqal mahallasi* (Guliston sh.), *Istiqlol mahallasi* (Xovos t.), *Navro‘z mahallasi* (Mirzaobod t.), *Rovot mahallasi* (Xovos t., Sardoba t.), *Zomin mahallasi* (Oqoltin t., Sardoba t.), *Zominlik mahallasi* (Sardoba t.) va boshqalar.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, oykonimlarning bir turi bo‘lgan mahalla nomlarini o‘z va o‘zlashganlik nuqtai nazaridan ma’noli guruhlarga bo‘lib o‘rganish ularning xususiyatlarini to‘liqroq ochib berishga xizmat qilishi mumkin.

2.4. VILOYATDAGI KO‘CHA NOMLARI

Ko‘cha nomlari ilmiy adabiyotlarda dromonimlar termini bilan ataladi. Ushbu onomastik termin E. Begmatov hamda N. Uluqovlarning “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati” nomli kitobda maxsus bayon etilgan¹.

Biz bu yerda, BMIImiz sahifalarida ko‘cha nomlari deganimiz o‘rinlidir. Shuningdek, viloyatdagi toponimlarning, xususan, ko‘cha nomlarining viloyat hayotidagi ahamiyati kattaligi uchun ham ularni alohida kichik ma’noviy guruhgaga bo‘ligan.

Viloyatdagi ko‘cha nomlari nisbatan olganda kamroq, chunki haligacha nomlanmagan ko‘cha ham bor. Ularning miqdori tumanlar ichida quyidagichadir: Guliston shahrida 61ta, Sirdaryo tumanida 51ta, Shirin shahrida 3ta, Sardoba tumanida 23ta, Oqoltin tumanida 20ta, Boyovut tumanida 60ta, Mirzaobod tumanida 21ta, Sayxunobod tumanida 44ta, Xovos tumanida 33ta, Yangiyer shahrida 25ta. Viloyatdagi ko‘cha nomlari quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo‘lindi:

1. Kishi ismi-sharifi bilan shakllangan ko‘cha nomlari: *Abdulla Qahhor ko‘chasi* (Sardoba t., Guliston sh.), *Abdulla Qodiriy ko‘chasi* (Sardoba t., Mirzaobod t., Guliston sh.), *Abdurahmon Jomiy ko‘chasi* (Sardoba t., Guliston sh.), (Guliston sh.), *Al- Xorazmiy ko‘chasi* (Yangiyer sh., Sardoba t., Guliston sh., Boyovut t.), *Al-Buxoriy ko‘chasi* (Guliston sh., Boyovut t.), (Yangiyer sh., Sayxunobod t.), *Al-Farg’oniy ko‘chasi* (Oqoltin t., Guliston sh., Sirdaryo t., Sayxunobod t.), *At-Termiziy ko‘chasi* (Sardoba t., Oqoltin t., Sirdaryo t.), *Ahmad Donish ko‘chasi* (Guliston sh., Sayxunobod t.), *Beruniy ko‘chasi* (Boyovut t., Sardoba t., Guliston sh., Sirdaryo t.), *Bedil ko‘chasi* (Guliston sh.), *Bobur ko‘chasi* (Mirzaobod t., Guliston sh.), *Bobur ko‘chasi* (Yangiyer sh., Sayxunobod t., Boyovut t., Sirdaryo t., Shirin sh.), *Gogol ko‘chasi* (Guliston sh.),

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. -Наманган, 2006. 17-бет.

Gulbahor ko‘chasi (Guliston sh.), *Ahmad Yassaviy ko‘chasi* (Boyovut t., Sirdaryo t., Sayxunobod t.), *Buxorovul ko‘chasi* (Sayxunobod t.), *Alisher Navoiy ko‘chasi* (Yangiyer sh., Mirzaobod t., Sardoba t.), *Boborahim Mashrab ko‘chasi* (Sardoba t.), *G’afur G’ulom ko‘chasi* (Sardoba t., Sayxunobod t.), *Abdulla Qahhor ko‘chasi* (Mirzaobod t.), *Ahmad Donish ko‘chasi* (Oqoltin t.), *Bibixonim ko‘chasi* (Oqoltin t.) .

2. Ramziy tushunchalar bilan nomlangan ko‘cha nomlari: *Avlodlar ko‘chasi* (Guliston sh.), *Adiblar ko‘chasi* (Guliston sh.), Adolat ko‘chasi (Guliston sh.), Alanga ko‘chasi (Guliston sh.), Baxt ko‘chasi (Guliston sh.), Barkamol avlod ko‘chasi (Sirdaryo t., Guliston sh.), Barhayot ko‘chasi (Guliston sh.), Buyuklar ko‘chasi (Guliston sh.), Bo’ston ko‘chasi (Guliston sh.), Vatan ko‘chasi (Guliston sh.), G’alaba ko‘chasi (Guliston sh.), G’oliblar ko‘chasi (Guliston sh.), Adolat ko‘chasi (Sayxunobod t., Sirdaryo t.), Armug'on ko‘chasi (Sirdaryo t.), Afsona ko‘chasi (Sirdaryo t.), Bazmgoh ko‘chasi (Sirdaryo t.), Baynalmilal ko‘chasi (Sirdaryo t.), Bayram ko‘chasi (Sirdaryo t.), Boyovut t.), Barqaror ko‘chasi (Sirdaryo t.), Barhayot ko‘chasi (Sirdaryo t.), Benazir ko‘chasi (Sirdaryo t.), Beozor ko‘chasi (Sirdaryo t.), Birodarlik ko‘chasi (Sirdaryo t.), Boboyurt ko‘chasi (Sirdaryo t.), Buyuk Turon ko‘chasi (Sirdaryo t.), Baxmallik ko‘chasi (Sardoba t.), Vatanparvar ko‘chasi (Oqoltin t., Sardoba t., Sardoba t.), Adabiyot ko‘chasi (Boyovut t.), Adolat ko‘chasi (Boyovut t.), Ayyom ko‘chasi (Boyovut t.), Alloma ko‘chasi (Boyovut t.), An’ana ko‘chasi (Boyovut t.), Arafa ko‘chasi (Boyovut t.), Vatanparvar ko‘chasi (Oqoltin t.), Baraka ko‘chasi (Boyovut t.), Baxt ko‘chasi (Boyovut t.), Bunyodkor ko‘chasi (Mirzaobod t.), Bo’ston ko‘chasi (Mirzaobod t.).

3. Ahillik, birlik ma’noli so‘zlardan shakllangan ko‘cha nomlari: Ahillik ko‘chasi (Sirdaryo t., Sardoba t., Boyovut t., Mirzaobod t.), Birlik ko‘chasi (Sardoba t.), Birdamlik ko‘chasi (Xovos t., Guliston sh.), Birlashgan ko‘chasi

(Sardoba t.), Birdamchilik (Boyovut t.), Birlashgan ko‘chasi (Boyovut t.), Birlik ko‘chasi (Oqoltin t.),

4. O‘simlik nomlaridan, ya’ni fitonimlardan¹ shakllangan ko‘cha nomlari: Atirgul ko‘chasi (Guliston sh.), Archazor ko‘chasi (Mirzaobod t., Sirdaryo t., Guliston sh.), Behizor ko‘chasi (Guliston sh.), Binafsha ko‘chasi (Yangiyer sh., Guliston sh.), Bodomzor ko‘chasi (Sirdaryo t., Sardoba t., Guliston sh., Boyovut t.), Anorzor ko‘chasi (Boyovut t.), Anorlibog‘ko‘chasi (Boyovut t.), Boychechak ko‘chasi (Guliston sh.), Anjirzor ko‘chasi (Xovos t.), Boychechak ko‘chasi (Sirdaryo t.), Anorli ko‘chasi (Sayxunobod t.), Anhor ko‘chasi (Sayxunobod t.), Behizor ko‘chasi (Xovos t., Boyovut t., Mirzaobod t., Sayxunobod t.), Boychechak ko‘chasi (Xovos t.), Bodomsoy ko‘chasi (Sayxunobod t.), Binafsha ko‘chasi (Xovos t.).

4.1. Gul so‘zi bilan shakllangan nomlar: Gulbahor ko‘chasi (Sirdaryo t.), Gulbog‘ ko‘chasi (Sirdaryo t., Boyovut t.), Gulg'uncha ko‘chasi (Sirdaryo t.), Guldasta ko‘chasi (Sirdaryo t.), Gulyor ko‘chasi (Sirdaryo t.), Gulzor ko‘chasi (Sirdaryo t.), Gulobod ko‘chasi (Sirdaryo t.), Guldasta ko‘chasi (Guliston sh.), Gulzor ko‘chasi (Mirzaobod t., Guliston sh., Xovos t.), Guliston ko‘chasi (Boyovut t., Oqoltin t., Xovos t.), Gulbahor ko‘chasi (Boyovut t.), Atirgul ko‘chasi (Yangiyer sh.), Guldasta ko‘chasi (Yangiyer sh.), Guliston ko‘chasi (Yangiyer sh.), Boychechak ko‘chasi (Yangiyer sh.).

5. Parranda va hayvon nomlaridan, ya’ni zoonimlardan² hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Asalchi ko‘chasi (Guliston sh.).

6. Asar qahramonlari nomidan shakllangan ko‘cha nomlari: Alpomish ko‘chasi (Oqoltin t., Oqoltin t., Guliston sh.), Afrosiyob ko‘chasi (Guliston sh., Sayxunobod t.).

¹ Эназаров Т. Ж., Ҳусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. 165-166-betlar.

² Эназаров Т. Ж., Ҳусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. 170-171-betlar.

7.Milliy qahramonlar nomidan hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Amir Temur ko‘chasi (Mirzaobod t., Guliston sh., Boyovut t., Sardoba t., Sayxunobod t.).

8.Shahar nomlari bilan atalgan ko‘cha nomlari: Andijon ko‘chasi (Yangiyer sh., Guliston sh., Mirzaobod t., Oqoltin t., Boyovut t.,).

9. Fasl nomlari bilan nomlangan ko‘cha nomlari: Bahor ko‘chasi (Boyovut t., Sardoba t., Yangiyer sh., Mirzaobod t., Guliston sh.), Bahoriston ko‘chasi (Guliston sh.), Bahoroy ko‘chasi (Guliston sh.).

10.Gidronim nomlari bilan atalgan ko‘cha nomlari: Beshbuloq ko‘chasi (Boyovut t., Sayxunobod t.), Anhor ko‘chasi (Sardoba t., Boyovut t., Guliston sh.), Amudaryo ko‘chasi (Sayxunobod t.), Ariqtepa ko‘chasi (Boyovut t.), Buloqboshi ko‘chasi (Guliston sh.), Buloqboshi ko‘chasi (Sayxunobod t.), Buloqli ko‘chasi (Sayxunobod t.).

11. Kasb nomlaridan shakllangan ko‘cha nomlari: Bastakor ko‘chasi (Guliston sh.), Bobodehqon ko‘chasi (Sayxunobod t., Sirdaryo t., Xovos t., Binokor ko‘chasi (Guliston sh., Sirdaryo t., Sayxunobod t., Xovos t.), Bog‘bon ko‘chasi (Sirdaryo t., Sardoba t., Guliston sh.), G’allakor ko‘chasi (Sardoba t.), Bunyodkor ko‘chasi (Guliston sh., Shirin sh.), Baliqchi ko‘chasi (Mirzaobod t., Sirdaryo t., Sayxunobod t.), Bastakorlar ko‘chasi (Yangiyer sh.).

12. Boshqa joy nomlari bilan atalgan ko‘cha nomlari: Baxmal ko‘chasi (Guliston sh.), Boysun ko‘chasi (Guliston sh.), Vodil ko‘chasi (Guliston sh.), Dashtobod ko‘chasi (Sardoba t.), Guliston ko‘chasi (Guliston sh.), Guzar ko‘chasi (Guliston sh.), Darxon ko‘chasi (Guliston sh., Sirdaryo t.), G’allaorol ko‘chasi (Sirdaryo t.), Baxmal ko‘chasi (Mirzaobod t., Boyovut t., Oqoltin t.), Boysun ko‘chasi (Oqoltin t.), Bekat ko‘chasi (Boyovut t.), Bo‘lim ko‘chasi (Boyovut t.), Buxoro ko‘chasi (Yangiyer sh.).

13. Ham tuman, ham gidronim nomi bilan shakllangan ko‘cha nomlari: Baxmalsoy ko‘chasi (Guliston sh.), Arnasoy ko‘chasi (Mirzaobod t.), Baxmal ko‘chasi (Xovos t., Yangiyer sh.)

14.Bog‘ so‘zi bilan shakllangan ko‘cha nomlari: Bog'dorchilik ko‘chasi (Guliston sh.), Bog'iston ko‘chasi (Yangiyer sh., Xovos t., Boyovut t., Sardoba t., Guliston sh.), Bog'ichaman ko‘chasi (Guliston sh.), Bog'ishamol ko‘chasi (Xovos t., Boyovut t., Guliston sh.), Bog'u-bo'ston ko‘chasi (Guliston sh.), Bog‘ ko‘chasi (Sayxunobod t., Sirdaryo t., Oqoltin t., Boyovut t.), Bog'dorchilik ko‘chasi (Boyovut t., Sirdaryo t.), Bog'ichaman ko‘chasi (Sirdaryo t.), Bog'ishamol ko‘chasi (Sayxunobod t., Sirdaryo t.), Bog'cha ko‘chasi (Sirdaryo t.), Binafsha ko‘chasi (Oqoltin t.), Bog‘bon ko‘chasi (Sayxunobod t., Oqoltin t., Boyovut t.), Bog‘i-eram ko‘chasi (Oqoltin t.), Bog‘dor ko‘chasi (Boyovut t.), Bog‘-bo'ston ko‘chasi (Xovos t.).

15.Ijobiy ma'noli so‘zlar: Ahillik ko‘chasi (Yangiyer sh.), Abadiyat ko‘chasi (Xovos t.), Bolalar dunyosi ko‘chasi (Xovos t.), Bo'ston ko‘chasi (Yangiyer sh.), Go'zallik ko‘chasi (Sirdaryo t.), Vatan ko‘chasi (Sayxunobod t.), Vodil ko‘chasi (Sayxunobod t.), Bo'ston ko‘chasi (Shirin sh.), Bag‘rikent (Boyovut t.), Baynalmilal (Sayxunobod t., Boyovut t.), Bayram ko‘chasi (Sayxunobod t., Boyovut t.), Adolat ko‘chasi (Oqoltin t.), Bo'ston ko‘chasi (Boyovut t.), Voha ko‘chasi (Boyovut t.), G‘alaba ko‘chasi (Xovos t., Boyovut t.), Vijdon ko‘chasi (Xovos t.), Barkamol avlod ko‘chasi (Mirzaobod t.), Baxt ko‘chasi (Mirzaobod t.), Asr ko‘chasi (Sayxunobod t.), Baraka ko‘chasi (Sayxunobod t.), Barkamol avlod ko‘chasi (Sayxunobod t.), Adolat ko‘chasi (Xovos t.), Anorzor ko‘chasi (Xovos t.), Armug'on ko‘chasi (Xovos t.), Afsona ko‘chasi (Xovos t.), Barqarorlik ko‘chasi (Xovos t.).

16. Urug‘ nomi¹ bilan shakllangan nomlar: Bolg‘ali ko‘chasi (Boyovut t.),

17.Istorizmlar bilan shakllangan nomlar: Amirobod ko‘chasi (Mirzaobod t.), Balandchaqir ko‘chasi (Sayxunobod t.), Gavharafshon ko‘chasi (Boyovut t.), Guzar ko‘chasi (Boyovut t.), Daha ko‘chasi (Boyovut t.), Adir ko‘chasi (Xovos

¹ Эназаров Т. Ж., Ҳусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. 166-170-betlar.

t.), Dahbed ko‘chasi (Sayxunobod t.), Dashtobod ko‘chasi (Yangiyer sh., Sayxunobod t.), Balandchaqir ko‘chasi (Yangiyer sh., Boyovut t.), Bekkeldi ko‘chasi (Sayxunobod t.), Bo‘z ko‘chasi (Mirzaobod t.), G‘azalkent ko‘chasi (Sayxunobod t.), Darxon ko‘chasi (Xovos t.).

18.Tog‘ so‘zi bilan shakllangan ko‘cha nomlari: Baxmal tog‘i ko‘chasi (Sayxunobod t.), Bobotog‘ ko‘chasi (Sayxunobod t.).

19.Ovul so‘zi bilan nomlangan ko‘cha nomlari: Boyovul ko‘chasi (Boy-ovut t.), Boyovut ko‘chasi (Yangiyer sh.).

20. Urf-odat bilan bog‘liq va yo‘l so‘zi bilan shakllangan ko‘cha nomlari: Belbog‘li ko‘chasi (Boyovut t.), Bozor yo‘li ko‘chasi (Sayxunobod t.).

Demak, Sirdaryo viloyatidagi shahar, shaharcha, qishloq va ko‘cha nomlari turli ko‘rinishda leksik-semantik guruhlangan. Chunki ular nomlanishiga ko‘ra turli vositalar bilan atalgandir.

3-BOB. VILOYATDAGI BA'ZI BIR TOPONIMLARNING IZOHI

Ushbu bobda viloyatdagi toponimlar tizimidagi sodda, qo'shma va birikmali toponimlardan bir qanchasining izohini berish yo'lidan borishni o'rinni deb bilamiz. Chunki ular o'ziga xos bir butunlik ma'nosida viloyat toponimlari tizimi to'g'risida tushuncha berishga ko'maklashadi. Toponim tarkibidagi so'zning ma'nosi va toponomining toponimik ma'nosi bir biridan farqlanib turadi. Shuning uchun ham Zaripboy Do'simov hamda M.Tillayeva nomlarning, xususan, toponimlarning o'ziga xos sirlari borligi to'g'risida fikr yuritishgan¹.

Mazkur bobda ham sodda, qo'shma va birikmali toponimlar deyilganda toponomning o'zi e'tiborga olindi va ularni izohlashga harakat qildik. Lekin ularga qo'shiladigan, shahar, ko'cha, qishloq, mahalla so'zlari toponimik aniqlovchi bo'lgani uchun toponomning tarkibiy qismi hisoblanmaydi.

3.1. SODDA TOPONIMLARDAN BA'ZI BIRLARINING IZOHI

Bu yerda viloyatimizdagi ba'zi bir sodda toponimlari to'g'risida fikr yuritamiz. Sodda toponimlar quyidagicha ko'rinishlarda bo'ladi: 1) sodda so'zdan tashkil topgan sodda toponimlar; 2) sodda so'z va qo'shimcha(lar)dan tashkil topgan sodda toponimlar. Shu yerda alohida ta'kidlashni istardikki, toponimlar izohlanganda shahar, shaharcha, qishloq, mahalla, ko'cha so'zlari(toponimik aniqlagichlar) ma'nolari aniq bo'lgani uchun izohlanmaydi. Quyida sodda toponimlardan ba'zilarining izohini berdik:

Olmazor shaharcha (Sayxunobod t.) - atrofi olmazor bo'lgan, olma daraxti ko'p ekilgan joyda yaratilgan shaharcha nomi. U XX asr oxirlarida yangidan tashkil topgan toponimlardan biri sanaladi.

¹ Дўсимов З., Тиллаева М. Жой номларининг сири. –Хива: Хоразм Маъмун Академияси, 2001.

Sohil shaharcha (Sayxunobod t.) – Sirdaryo qirg‘og‘ida qurilgan shaharcha nomi qirg‘oq ma'nosidagi arabcha sohil so‘zi bilan shakllangan.

Sayxun shaxarcha (Sayxunobod t.) – Tarixiy kitoblarda ta'kidlanishicha, Sirdaryoning oldingi nomlaridan biri Sayxun bo‘lgan¹. Bu oykonim, ya'ni aholi punkti nomi Sirdaryoning oldingi nomiga asoslanib qo‘yilgan.

Xovos shaharchasi (Xovos t.) – fors-tojikcha xovos so‘zi asosida tuman nomi yuzaga kelgan, keyin esa shaharcha nomi shakllangan – Xovos shaharchasi.

Darxon ko‘chasi (Guliston sh., Sirdaryo t.) – fors-tojikcha in'om qilingan ma'nosini bildiradigan darxon asosida ko‘cha nomlangan.

Bolg‘ali ko‘chasi (Boyovut t.) – turkiy urug‘ nomlaridan birining shoxobchasi bolg‘ali urug‘i bo‘lgan. Shu urug‘ nomidan ko‘cha nomi shakllangan. Urug‘ nomi ko‘chaga qo‘yildimi, demak, bu urug‘ nomi vakillari shu topoobyekt atrofida yashashganligini ham e'tiborga olish kerak. Toponim bolg‘ali urug‘i nomi asosida shakllangani uchun uni etnotoponim deyish o‘rinliroqdir.

Humo qishlog‘i (Guliston sh.) – toponim baxt qushi ma'nosidagi arabcha humo so‘zidan kelib chiqqan. Qushlar nomi onomastikada ornotonimlar deyilishini hisobga olsak, bu toponim ornotoponim deyiladi.

Malik qishlog‘i (Sirdaryo t.) – fors-tojikcha malik so‘zidan bu toponim nomi shakllangan. Malik so‘zi ayni vaqtida kishi nomi ma'nosini bildirsa, oldingi davrlarda lashkarboshi, sarkarda va kishi ismi ma'nolarini anglatgan.

Turon qishlog‘i (Sirdaryo t.) – qadimgi davrda tur, turk kabi so‘zlar turkiy xalq va urug‘larni anglatgan. Toponim tarkibidagi –on qo‘srimchasi ko‘plikni anglatuvchi qo‘srimcha. Turon turkiylar, turkiy qavmlar, turkiy, urug‘-elatlar yashagan joy ma'nosini anglatadi.

Omkor mahallasi (Boyovut t.) – bu toponim tadbirkor, ishbilarmon ma'nosidagi omkor so‘zi bilan shakllangan. Omkor mahalla bu – dehqonchilik,

¹ Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. –Тош-кент: Фан, 1989. 37-бет.

chorvachilik va hunarmandchilik sohalarida tadbirkor va ishbilarmon kishilar yashaydigan mahalla degan ma'noni bildiradi.

Baxmal mahallasi (Guliston sh.) – Baxmal tumani Jizzax viloyatida joylashgan. Shu tumandan ko‘chib kelganlar yashaydigan joyni, mahallani Baxmal mahalla deb atalgan¹.

Demak, sodda toponimlarning izohli tahlilida bir o‘zakdan yoki o‘zak va qo‘shimchadan tashkil topgan toponimlarga e’tibor qilindi. Ular tarkibida –zor va –kor qo‘shimchalar, ya’ni topoformantlar qatnashishi ham kuzatildi.

3.2.QO‘SHMA TOPONIMLARDAN BA'ZI BIRLARINING IZOHI

Ikki so‘zning bir butun so‘z holatiga kelib qolishi qo‘shma so‘z bo‘lsa, ikki toponimik o‘zakning birikib, bir butun toponimga aylanishidan hosil bo‘lgan joy nomi esa qo‘shma toponim deyiladi. Quyida qo‘shma toponimlardan ba'zilarining izohini keltirib o‘tdik:

Boyovut shaharcha (Boyovut t.) – boy obod qilgan joy birikmasi vaqtlar o‘tishi bilan *boy obod qilgan joy > boy ovut > boyovut* > Boyovut holatida fonetik o‘zgarishlar bilan toponimga aylangan.

Sardoba shaharchasi (Oqoltin t.) – cho‘llarda suv saqlanadigan chuqur joy, suv chiqadigan quduq o‘rab olingan joy oldinlari sardoba deyilgan. Sardoba so‘zidagi *ob* so‘zi suv degan ma'noni anglatadigan fors-tojikcha so‘zdir.

Beshbuloq ko‘chasi (Boyovut t., Sayxunobod t.) – turkiylarda uch, besh, yetti, yig‘irma, qirq kabi raqamlar ilohiy raqamlar sifatida e’tirof etilgan H.Hasanov, T.Nafasov kabi olimlarning ishlarida qayd etilgan. Toponim ko‘p (ya’ni beshta) buloq(lar) qo‘shilgan joy ma'nosini anglatadi.

¹ Охунов Н. Тил ва жой номлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1988. 13-bet.

Buloqboshi ko‘chasi (Guliston sh., (Sayxunobod t.) – buloqning oldi ma'nosidagi toponim. Farg‘ona vodiysida ham Buloqboshi toponimi borligini va Sirdaryo viloyatining ma'lum bir qismlari yangidan o‘zlashtirilgan cho‘l hududlari ekanligini hisobga olsak, bu toponim joylashgan hududga Farg‘ona vodiysidagi Buloqboshidan ko‘chib kelganlar yashashgan, degan ma'noni bildiradi.

Bobodehqon ko‘chasi (Sirdaryo t.) – toponim ikki so‘zdan tashkil topgan: bobo, dehqon. Ayni vaqtda zamon o‘zgarishi bilan dehqon so‘zi ham arxaik so‘zga aylanib, tadbirkor, fermer so‘zlari faol qo‘llanadigan bo‘ldi. Ushbu toponim o‘z kasbini yaxshi bilgan tajribali dehqon(lar) yashagan joy degan ma'noni bildiradi.

Bog‘i-eram ko‘chasi (Oqoltin t.) – bu toponim ikki so‘zdan tashkil topgan: bog‘ va eram. Ularning –i qo‘shimchasi (izofa) bog‘lab turibdi. Mazkur toponim yaxshi joy, bog‘-rog‘li hudud ma'nosida qo‘llanilgan.

Laylakko‘l qishlog‘i (Boyovut t.) – ushbu toponim laylaklar yashaydigan ko‘l mma'nosini anglatadi. Unda ikkita ma'noli qism bor: laylak va ko‘l. Ular birikib, toponimni tashkil etgan.

Qo‘rg‘ontepa qishlog‘i (Sardoba t.) – mazkur toponim qo‘rg‘oni hamda tepaligi bor qishloq ma'nosini bildirib turibdi. U qo‘rg‘on va tepa so‘zlaridan tashkil topgan. Qadimda tepaliklar yon bag‘rida himoya qo‘rg‘onlari bo‘lgan. Mana shu jarayonning mazmunini toponim o‘zida jamul-jam qilgan.

Gulbuloq mahallasi (Sayxunobod t.) – suv kam yerda chiqqani uchun buloqqa atrofdagi yerkarni gullatadigan buloq ma'nosida Gulbuloq deb nomlashgan. Shuningdek, Jizzaxning Baxmal tumanida va Bulung‘ur tumani sharqida Gulbuloq degan obod joy ham borligi ma'lum¹. Ehtimol, shu joydan ko‘chib kelganlar yashaydigan joy ma'nosida Gulbuloq deb atalgan bo‘lishi mumkin.

¹ Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. С., Зарафшон, 2003. 48-bet.

Ulug‘obod qishlog‘i (Guliston sh.) – oykonim nomi ikki so‘zdan tashkil topgan: ulug‘ va obod. Ushbu ikki so‘z birikib, Ulug‘obod birikmasini hosil qilgan. Uning ma'nosi ulug‘lar obod qilgan qishloq degan ma'noni anglatib turibdi.

Xovosobod qishlog‘i (Xovos t.) – toponim Xovos tumani nomidan shakllangan bo‘lib, xovos va obod so‘zlaridan shakllangan. Toponim Xovos tumani nomidan shakllangan. U Xovos tumaniday obod qishloq ma'nosini bildiradi.

Baytqo‘rg‘on mahallasi (Boyovut t.) – joy nomi ikki so‘zdan tashkil topgan: bayt, qo‘rg‘on. Agar bayt so‘zi ikkilik, ikki qator ma'nolarini anglatishni hisobga olsak, ushbu mahalla nomi ikki qo‘rg‘oni bor degan ma'noni anglatib turibdi¹.

Uchturg‘on mahallasi (Boyovut t.) – oldinlari aholi kam bo‘lgani uchun unda-bunda kishilar uy-joy qilib yashashgan. Uchta xonodon turgan, yashagan joy ma'nosida uch turg‘on joy birikmasida Uchturg‘on toponimi shakllangan. Keyinchalik aholi ko‘payib, uy-joylar zich quriladigan bo‘lgan, biroq toponim avvali nomi bilan atalib kelmoqda: Uchturg‘on mahallasi.

